

ЎЗБЕК ТИЛИ ГЕНДЕР ХОСЛАНГАН ЭВФЕМИЗМЛАРИНИНГ ҚИСҚАЧА ИЗОҲЛИ ЛУҒАТИ

ШАҲНОЗА ГҮЛАЯМОВА

Ш. Туманова

Ўзбек тили гендер хос-
ланган Эврей тили тарч-
ишарида ишлатилган

11.12.21

19

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**

ГУЛЯМОВА ШАҲНОЗА

**ЎЗБЕК ТИЛИ
ГЕНДЕР ХОСЛАНГАН
ЭВФЕМИЗМЛАРИНИНГ
ҚИСҚАЧА ИЗОҲЛИ ЛУҒАТИ**

БухДУ Илмий кенгашининг 2019 йил 15 июндаги қарорига асосан
(баённома №8) нашрга тавсия этилган.

Тошкент
«Akademnashr»
2019



УЎК: 811.512.133'373.49(038)

КБК: 81.2Ўзб-4

Г 95

Г 95 Гулямова, Шаҳноза.

Ўзбек тили гендер хосланган эвфемизмларининг қисқача изоҳли луғати
[Матн] / Ш. Гулямова. – Тошкент: Akademnashr, 2019. – 80 б.

ISBN 978-9943-5927-2-8

УЎК: 811.512.133'373.49(038)

КБК: 81.2Ўзб-4

*Нутқ жараёнида ахлоқ-одоб ҳамда ҳиссий талаблар таъсирида айтилиши но-
жоиз, ноқулай бўлган сўзларнинг юмшоқ ва мулоим ифодаси бўлган иккиламчи
номлар, яъни эвфемизмлар тилда алоҳида бир тизимни ташкил қилади. Уларнинг
гендерологик фарқланиши ҳам ўзига хос. Мазкур луғатда ана шундай 200 дан ор-
тиқ ўзбек нутқи эвфемизмларининг гендер хосланиши изоҳланган.*

*Луғат олий таълим тизими филология ва тилларни ўқитиш (ўзбек тили) таъ-
лим йўналишида таҳсил олаётган талабалар, магистрантлар, соҳа мутахассис-
лари ҳамда эвфемизмлар билан қизиқувчиларга мўлжалланган.*

Масъул муҳаррир:

Б.Р.Менглиев, филология фанлари доктори, профессор

Тақризчилар:

А.Ж.Омонтурдиев, филология фанлари доктори, профессор,

Д.Н.Йўлдошева, педагогика фанлари номзоди, доцент

ISBN 978-9943-5927-2-8

© Гулямова Шаҳноза
«Ўзбек тили гендер хосланган
эвфемизмларининг қисқача изоҳли луғати»
© «Akademnashr», 2019

СЎЗБОШИ

Инсон ҳар бир даврага, аввало, сўзи билан кириб боради. Кишиларнинг маънавий савияси, одоб-ахлоқи, маданиятлилик даражаси, олийжаноблиги, умуман, ички дунёсининг қанчалик бой эканлиги, аввало, унинг нутқидан маълум бўлади. Сўзловчига хос ижобий ёки салбий феъл-атвор ҳам унинг нутқида муайян тил воқитлари асосида юзага чиқади. Халқимизнинг «Яхши топиб гапирар, ёмон – копиб» деган мақоли замирида ҳам нутқ эгасига хос феъл-атворнинг ижобий ёки салбий жиҳатига ишора сезилиб туради. Баъзан жуда ораста кийинган, юриш-туриши ўзига ярашган кишилар билан, баъзан биз учун «юлдуз» даражасида бўлганлар билан озгина суҳбатлашсак, қайтиб бу суҳбатни орзу қилмаслигимиз ҳам мумкин. Ёки аксинча.

Тилда гоҳ «юмшоқ синонимлар», гоҳ «юмшоқ вариантлар» деб юри-тилувчи эвфемизмлар нутқни таъсирчан ва ёқимли қилади. Нутқ жараёнида ахлоқ-одоб ҳамда ҳиссий талаблар таъсирида айтилиши но-жоиз, ноқулай бўлган сўзларнинг юмшоқ ва мулоим ифодаси бўлган иккиламчи номлар, яъни эвфемизмлар тилда алоҳида бир тизимни ташкил қилади. Масалан, Абдулла Қодирийнинг «Ўткан кунлар» аса-рида Кумушбиби мактубида шундай ўрин бор: *«Сизни ва отамни жуда соғиндим, агарда оғироеъ бўлмасам эди, қиш бўлишига қарамасдан, Мар-ғилонга жўнар эдим, қудангиз, қайин онамнинг сўз(лар)ига қараганда, келаси ойда кўзим ёрир эмши».*

Мактубдаги ҳомиладорлик билан боғлиқ маъноларни акс эттирган оғироеъ, кўзи ёримоқ каби эвфемизмлар халқимизнинг миллий руҳи, одоби, назокатини акс эттирган тил бирликларидир.

Ёки Тоғай Муроднинг «Юлдузлар мангу ёнади» қиссасига эътибор берайлик. Асарда фақат курашчилар нутқига хос бўлган эвфемизмлардан ташқари «хотин олмоқ» бирлиги ўрнида «бегона қилмаслик» (*Бўри полвон Сулувни бегона қилмади*) (64-бет) ёки бугунги кунда кўпчиликнинг нутқида уят, ноқулай сезилмайдиган «севмоқ» луғавий бирлиги ўрнида «кўз остига олмоқ» (*Бўри полвон ана шу қизни кўз остига олди*), «кўнглига ўтирмоқ» (*Сулув Бўри полвон кўнглига ўтириб қолди*) кабилар ишлатиладики, бу тилимизнинг жозибадорлиги ёзувчи маҳоратига асос бўлганлигидан далолатдир.

Эвфемизмлар орқали, асосан, инсон руҳияти, ўзаро муносабати, бир-бирига бўлган эъзози, хурмати, такаллуфи акс этади. Том маънода эвфемизмларни ўринли қўллаш нутқни маданийлаштиради, сўзловчини ҳам, тингловчини ҳам ноқулайликдан қутқаради. Шунинг учун улардан фойдаланишда эҳтиёткорлик талаб этилади.

Эвфемизмлар жаҳон тилшунослигида ҳам, унинг бир бўлаги бўлмиш ўзбек тилшунослигида ҳам атрофлича ўрганилган мавзулардан бири бўлишига қарамай, у ҳамон тадқиқотчилар эътиборини ўзига тортиб келмоқда. Ўзбек нутқида қўлланиладиган эвфемизмларни гендер хослик нуқтаи назаридан ўрганиш ва унинг луғатини яратишга бўлган уринишлар шулар жумласидан.

Ўзбек эвфемизмлари луғатчилиги борасида илк дадил қадамни тилшунос олим А.Ж.Омонтурдиев ташлаганлигини эътироф этиш зарур.¹ Мазкур луғатда ўттиздан ортиқ мавзу асос сифатида танланиб, шу мавзулар эвфемик қуршовини ташкил этувчи бирликлар тадрижий кетма-кетликда жойлаштирилган. Жумладан, асарда «ўлмоқ» тушунчасининг беш юзга яқин, «туғмоқ» тушунчасининг ўттиздан ортиқ эвфемик вариантлари ифодаланган. Алифбо тартибида берилган эвфемик бирликларнинг ҳар бирига бадиий асарлардан, оғзаки сўзлашув нутқидан тегишли мисоллар келтирилган.

Қўлингиздаги «Ўзбек тили гендер хосланган эвфемизмларининг қисқача изоҳли луғати» эвфемикшунос олим А.Ж.Омонтурдиев томонидан тузилган «Ўзбек тилининг қисқача эвфемик лу-

¹ Омонтурдиев А.Ж. Ўзбек тилининг қисқача эвфемик луғати. – Тошкент: Фан, 2006.

гати»нинг мантикий давоми бўлиб, ўйлаймизки, бу борадаги ишларни тўлдиришга, мукамаллаштиришга кўмаклашади.

Таъкидлаш жоизки, замонавий тилшуносликнинг янги парадигмаси ҳисобланмиш гендер лингвистикаси жамият аъзолари учун умумий бўлган лисоний тизим фойдаланувчиларига жинс нуқтаи назаридан ёндашади ва аёллар ҳамда эркаклар нутқидаги хушхулқлик муаммолари, уларнинг ўхшаш ва фарқли томонларини тадқиқ этади. Бу борада жаҳон тилшунослигида А.П.Мартинюк, Р.Лакофф, Ж.Коаст, Е.А.Земская² каби бир қатор тилшуносларнинг изланишлари диққатга сазовор бўлиб, биз мазкур луғатни тузишда уларнинг фикр-мулоҳазаларига ҳам таяндик.

Шунингдек, ушбу луғатни яратишда хушхулқлик нафақат аёллар, балки эркаклар нутқи учун ҳам ўта муҳим омил эканлигига, тил бирликларидан ўз ўрнида ўринли ва самарали фойдаланиш ҳар бир тил эгаси учун зарурлигига эътибор қаратдик. Ўзбек нутқида хушхулқлик принципи нуқтаи назаридан гендер эвфемизмларини қуйидагича гуруҳлар асосида жойлаштиришга ҳаракат қилдик:

1. Ифодалаш ноқулай бўлган тушунчаларни суҳбатдошнинг кўнглига тегмайдиган бирликлар орқали қўллаш (аёллар ва эркаклар нутқида).

Жамиятда ўзини ҳамда ўзгаларни ҳурмат қилган эркак ҳам, аёл ҳам, одатда, маданиятли сўзлашга интилади. Кўп ҳолларда эвфемизмлар бу икки жинс вакиллари тилида бирдай фаол қўлланилади.

2. Турли жисмоний камчиликларни ифодаловчи гендер эвфемизмлар. Бу гуруҳ гендер эвфемизмларига эркак ва аёлларга бирдай тегишли бўлган «*кўзидан айрилмоқ*» (кўр бўлмоқ), «*кўзи ожиз*» (кўр), «*ногирон*» (чўлоқ, шол ва б.), шунингдек, эркакларнинг нуқсонини ифодаловчи «*бепушт*», «*безурриёт*», «*кечалиги йўқ*», «*жисмоний камчиликли*» (ҳезалак)³ кабилар киради.

² Земская Е. А., Китайгородская М. А., Розанова Н. Н. Особенности мужской и женской речи // Русский язык в его функционировании / Под ред. Е.А.Земской и Д.Н.Шмелева. - М., 1993. - С.90 - 136.

³ Омонтурдиев А. Ўзбек тилининг қисқача эвфемик луғати. - Тошкент: Фан, 2006. - Б.46.

3. Аёлларнинг ва эркакларнинг ташқи кўринишини ифодаловчи эвфемизмлар. Мазкур гуруҳда аёлларга тегишли эвфемизмлар кўп учрайди. Сабаби, аёллар ўз ташқи қиёфаси, қадди-қомати ва яхши кўринишига кўп эътиборли. Қайд этиш керакки, «ортиқча вазн», «тўлалик» каби муаммолар мазкур эвфемизмларнинг вужудга келишига сабаб бўлган.⁴⁴

4. Аёлларнинг ва эркакларнинг ахлоқий, эмоционал ва интеллектуал сифатларини англатадиган эвфемизмлар. Бундай эвфемизмлар ҳам тилимизда сермахсул ҳисобланади. Масалан, «қиз»-ни «баҳорни кўрмаган чечак», «очилмаган ғунча», «нодир буюм» эвфемизмлари, «қиз эмас» тушунчасини «ҳидланган гул», «иффати олинган», «ит теккан»⁵⁵ каби ўндан ортиқ эвфемик бирликлар орқали ифодалаш мумкин.

Маълумки, ҳар бир инсонда, у хоҳ аёл, хоҳ эркак бўлсин, ўзига хос жисмоний, эмоционал ва ахлоқий сифатлар бор. Бу хусусиятларнинг кўпчилигини очиқ ифодалаш нутқий этикетга тўғри келмаслиги мумкин. Шу сабабдан, юқорида кўриб ўтганимиздек, уларнинг номини юмшатувчи бирликлар билан алмаштириб қўлаш зарурати туғилади.

5. Аёллар ва эркаклар жисмоний ҳолатини (ёшини) билдирадиган эвфемизмлар. Масалан, нутқимизда «оғироек», «бўйида бўлмоқ», «иккиқат», «бошқоронғи», «юкли» (бўғоз); «оёғи тўртта бўлмоқ», «бошини икки қилмоқ», «ола хуржун бўйнига тушмоқ», «ваъдага вафо қилмоқ» (хотин олмоқ) каби бир қатор эвфемизмларга тез-тез мурожаат қиламиз.

Демак, аёлларга оид эвфемизмлар шахсий ва шахслараро муносабатлар соҳасига ҳам тегишли ҳисобланади. Чунки у ижтимоий соҳа билан боғлиқ бўлиб, аёлларнинг жамиятдаги касбий фаолиятини ҳам назарда тутди.⁶⁶ «Маскулин» сифатлар билан тўлдирилган анъанавий «феминистик» образлар баъзида турли зид «аёллар» эвфемизмларида ўз аксини топади. Гендер эвфемизм-

⁴⁴ Вильданова Г.А. Эвфемизм как средство реализации гендерной вежливости в современном английском языке / <https://cyberleninka.ru>

⁵⁵ Омонтурдиев А. Ўзбек тилининг қисқача эвфемик луғати. – Тошкент: Фан, 2006. – Б.18.

⁶⁶ Вильданова Г.А. Эвфемизм как средство реализации гендерной вежливости в современном английском языке / <https://cyberleninka.ru>

ларида метафоризация, перифраза ва сўз ўйинлари асосий механизм саналади.

Хуллас, луғатимизда ўзбек тилида гендер хосланган ва гендер фарққа эга бўлмаган эвфемизмларни гуруҳлаб, уларнинг изоҳини келтирдик. Бадиий асарлардан, матбуот материаллари ва сўзлашув нутқидан олинган мисоллар асосида изоҳлаб, манбаини кўрсатдик.

Луғатда дастлаб эвфемизм ва унинг гендер хосланган-хосланмаганлиги кўрсатилган бўлиб, сўнг унинг асл варианты, яъни очиқ шакли изоҳлаб келтирилган.

Луғатдаги сўзлар алифбо тартибида жойлаштирилган бўлиб, эркак жинсига хосланган эвфемизмлар [э] – *эркак*, аёл жинсига хосланган эвфемизмлар [а] – *аёл*, гендер фарққа эга бўлмаганлари эса [б] – *бетараф* каби шартли белгилар орқали ифодаланган. Масалан:

БОКИРА [а] – *сфт.* Соф, тоза; эркак кўли тегмаган. Эр кўрмаган, турмушга чиқмаган қиз. Иффатли қиз. Номусли қиз. Эркак нафасидан йироқ.

Ҳеч қаёққа кетмайман, менга осилманг, бўлмаса, бир бокира жоннинг уволига қоласиз! (К.Яшин, Ҳамза)

Сенга шундай бокира жононларни топиб берайки, хуснини кўриб, ақлинг оғмаса – ҳисобмас (Ж.Абдуллахонов, Тўфон).

Ўзининг бокира эканлигини таъкидлаган қиз фарзанд дунёга келтирди (Саодат, 2006. №4).

НАФСНИ ҚОНДИРМОҚ [э] – *фл.* Шаҳвоний ҳирс.

Бундай ўз нафсларини қондирмоқчи бўлган зотлар бировнинг ҳалол хотинига кўз тикиб, ҳаётда ҳеч бўлмаган ёлғон сўзларни қилиб, ширингина бир турмушни бузмоқчи бўладилар (Ҳамза, Тухматчилар жазоси).

Бойваччанинг кўзида ҳар бир хотин унинг нафси, ҳирси учун яратилган чиройли мева эди (Ойбек, Танланган асарлар).

Кувёв нафсини қондиргач, бир пиёла шароб ичдию маст уйқуга кетди. (Т.Малик, Номус)

БЕПУШТ [б] – *сфт.* Бола кўрмаган, наслсиз, бефарзанд, бола-сиз.

Шоди Мударрисовичнинг отаси эски жўвалик Гултошша деган танноз бир бепушт жувонга ўралашиб юрди (Д.Нурий, Осмон устунни).

Луғатда эркак ва аёлларнинг ахлоқи, табиати, ташқи кўриниши, физиологик ҳолати билан боғлиқ бўлган, шунингдек, уларнинг нутқида фарқли тарзда учрайдиган, ҳар икки жинсда умумий қўлланадиган эвфемик бирликлар билан боғлиқ мисоллар жамланди.

Ҳукмингизга ҳавола этилаётган «Ўзбек тили гендер хосланган эвфемизмларининг қисқача изоҳли луғати» бу борадаги илк қадам, шу боис уни камчиликлардан холи деган фикрдан йироқмиз. Луғат ва уни мукаммаллаштириш борасидаги фикр-мулоҳазалар муаллиф томонидан мамнуният билан қабул қилинади.

АЛИФБО

Аа	Бб	Вв	Гг	Дд	Ее	Ёё	Жж
Зз	Ии	Йй	Кк	Лл	Мм	Нн	Оо
Пп	Рр	Сс	Тт	Уу	Фф	Хх	Цц
Чч	Шш	Ъъ	Ьь	Ээ	Юю	Яя	Ўў
Ққ	Ғғ	Ҳҳ					

АЁЛ [а] – *от.* 1. Умуман, эркакка қарама-қарши жинсдаги шахс; хотин. Бу маънода, асосан, кўплик шаклида қўлланилиб, умумлаштириш маъносига эга бўлади, «хотин-қизлар» маъносини билдиради.

Ориятли бўлганидан, одамлар юзига тик қарагани уяладими, ким билсин, бу аёлнинг вужудида ўн эркакнинг ор-номуси бор эди (Т.Ашуров, Оқ от).

Шарқ аёллари, шу жумладан, ўзбек аёлларининг таърифи олам аҳлини ҳайратга солиб келаётгани сир эмас (Газетадан).

2. Хотин, рафиқа (эрга нисбатан).

Аҳмад бригадирнинг юрагига ғулғула тушди, сергак тортиб, аёлига қаради (С.Нуров, Нарвон).

Аёлим қишин-ёзин ичкари ҳовлининг юмушини қилади: кир ювади, уй-жойни супуради, нон ёпади, кўрпа қавийди (Ойбек, Танланган асарлар).

Уйда аёлимизга бор гапни айтиб бердим. Аёлимиз олдин ишонмади (Т.Мурод, Отамдан қолган далалар).

АЖАЛ ОҒЗИ [б] – *от.* Ўлим пайти, қазо вақти; ўлим.

Жигарбандига «ризқинг узилмасин, болажоним» деган хавотирҳадикда нон тишлатган муштипар оналар фарзандини армияга эмас, ажал оғзига жўнатаётгандай жон ҳовучлаб қоларди (Халқ сўзи, 2013 й. 30 январь).

АЙБИ БОР [б] – *сфт.* Жисмоний жиҳатдан камчилиги, нуқсони, иллати бор; айбли.

Айби бор учун уйланмай юргандир-да (Сўзлашув нутқидан).

АҚЛ-ҲУШИНИ ЙЎҚОТМОҚ [б] – *сфт.* Тўғри фикр-мулоҳаза юритиш, тўғри идрок этиш ҳолатини йўқотмоқ, эс-ҳушини йўқотмоқ.

«Яхши кўрганда қизлар ақлини йўқотиб қўяди», – дейишади (П.Қодиров, Уч илдиз).

АСР ВАБОСИ [б] – *от.* Ўта оғир, давоси топилмаган ОИТС касалига етакловчи ВИЧ вирус.

Йилдан-йилга аср вабоси касаллигига чалинаётганлар сони ортиб бориши хавотирли ҳол, албатта (Бухоронома, 2011 й. июнь).

– Б –

БАЛОҒАТГА ЕТМОҚ [а] – *фл.* Етилмоқ, вояга етиш, бўйига етиш; етуклик. Жисмоний жиҳатдан етилганлик. *Балоғат ёши. Балоғатга етмоқ.*

Қизиқ, балоғатга етган қиз муҳаббатни эмас, муҳаббатнинг ўзи уни излаб топади деганлари рост экан (Ў.Ҳошимов, Баҳор қайтмайди).

Назиранинг ҳарир кўйлаги баданларига ёпишиб, унинг балоғат таровати ёғилиб турган бор қоматини кўз-кўз этарди (Д.Нурий, Осмон устун).

БЕВА [б] – *сфт.* Эри ўлган ёки талоқ қилинган хотин; эри ёки хотини ўлган ва бошқа турмуш қилмаган; тул; қоқбош. *Бева чол. Бева хотин.*

Номарднинг хотини бўлгунча марднинг беваси бўлган яхши (Мақол).

Домла бундан уч йил бурун бева қолиб, унга гоҳ сингиси, гоҳ узатган қизи қараб юрар эди (А.Қаҳҳор, Тўйда аза).

Балки, қаршингизда келгандир мунис, Бева келинчакнинг сўник рухсори (А.Орипов).

БЕГИМ [э] – *от.* Эр. Оилавий муносабатларда хотиннинг эрига бўлган мурожаат шакли ҳисобланади. *Бек сўзига I шахс, бирликдаги эгалик кўшимчаси -им кўшилиб, бегим шаклига кирган.*

Эрни «бегим» деб аташ маъқул эмасми? (Оила даврасида, 2013 й. 14 март)

БЕКАМ [а] – *от.* 1. Хотин. Эр хотинга қўллайдиган мурожаат шакли.

2. Оилага, хонадонга ёки хўжаликка бошчилик қилувчи аёл. *Богбонсиз боғ мисли чўл-ёбон, Бекасиз уй – сувсиз тегирмон (Қанотли сўзлар).*

Тўй бекаси – Мирзакаримбойнинг хотини аёлларни уч гуруҳга айирган эди (Ойбек, Танланган асарлар).

Ярим кечада қаёққа борамиз, ўзингиз ўйланг! – деди куёв меҳмонхона бекасига (С.Анорбоев, Оқсой).

Хўш, унда эр ва хотин бир-бирини қандай чақиргани маъқул? «Бегим», «бекам» каби чиройли сўзларимиз бор-ку! (Оила даврасида, 2013 й. 14 март).

БЕЛДАН ПАСТ [а] – *от. Аёлларнинг уятли аъзоси; аврат. У белдан пастини силкитиб ўйнаганда араб аёллари ҳам четга чиқиб қолишди (Сайд Аҳмад, Жимжитлик).*

БЕЛИДАН ҚУВВАТ, КЎЗИДАН НУР КЕТГАН [б] – *сфт. Анча ёшга борган, қартайган; кекса.*

Оёқлари оғриб, белидан қувват, кўзидан нур кетганида ҳасса олиб берган... бу – бизлармиз. (Оила даврасида, 2015 й. 18 март)

БЕЗУРРИЁТ [б] – *сфт. Фарзанди йўқ; насл-насаби қолмаган; бепушт.*

Бобоёр кессин ёлғиз бошингни. Дунёдан безурриёт ўтгин, Гўрўғли (Эргаш Жуманбулбул ўғли).

Бу дунёдан безурриёт ўтишдан Оллоҳнинг ўзи асрасин (Сўзлашув нутқидан).

БЕПУШТ [б] – *сфт. Бола кўрмаган, наслсиз, бефарзанд, бола-сиз; безурриёт.*

Шоди Мударрисовичнинг отаси эски жўвалик Гулпошша деган танноз бир бепушт жувонга ўралашиб юрди (Д.Нурий, Осмон устуни).

БИТТАГА ҚАНОАТ ҚИЛМАСЛИК [э] – *сфт. Хотинбоз, бузуқ, кўп хотинлар билан айш-ишрат қиладиган ахлоқсиз эркак.*

Биттага қаноат қилмаслик шайтоний ҳирсдир, болам (Газетадан).

БОКИРА [а] – *сфт. Соф, тоза; эркак кўли тегмаган. Эр кўрмаган, турмушга чиқмаган қиз. Ифбатли қиз. Номусли қиз. Эркак нафасидан йироқ.*

Ҳеч қаяққа кетмайман, менга осилманг, бўлмаса, бир бокира жоннинг уволига қоласиз! (К.Яшин, Ҳамза)

Сенга шундай бокира жононларни топиб берайки, хуснини кўриб, ақлинг оғмаса – ҳисобмас (Ж.Абдуллахонов, Тўфон).

Ўзининг бокира эканлигини таъкидлаган қиз фарзанд дунёга келтирди (Саодат, 2006. №4).

БОКИРАЛИГИНИ ЎҒИРЛАМОҚ [а] – *фл. Кўл тегмаган, эр кўрмаган, турмушга чиқмаган ифбатли қизни зўрламоқ, қизлигини олмоқ. Номусини тўкмоқ. Қизнинг тўшагини босмоқ.*

Қизнинг бокиралиги ўғирланган экан (Саодат, 1998. №10).

БОЛА КЎРМАСЛИК [б] – *сфт. Туғмас аёл ва бепушт эркакларга нисбатан кўлланилади.*

Бола кўрмаган хотини билан яшашдан безиб юрган эр талоқни хаяллатмади (Т.Малик, Номус).

БОШИ ЁСТИҚҚА ТЕГМОҚ [б] – фл. Касал бўлиб ётиб қолмоқ, бетоб бўлмоқ, Хасталанмоқ.

Ким қандай, бошинг ёстиққа текканда билинар экан (С.Абдулла).

Ишқилиб, барака топсин докторлар, бошинг ёстиққа текканда жонингга ора киришади (Ҳ.Назир, Олтин қадах).

Боши ёстиққа теккачгина соғлиғининг қадрига етадиган, хасталикни енгиш ҳақида ўйлай бошлайдиганлар орамизда йўқ дея олмаймиз-да, ахир (Ҳалқ сўзи, 2013 й. 9 январь).

БОШИ ОЧИҚ (БЎШ) [а] – сфт. Эрсиз ёки эридан ажралган хотин.

Энди у [Мунаввар] боши очиқ қиз бола эмас. Оилали (С.Анорбоев, Мехр).

Бугундан бошинг очиқ. Уч талоқ кўйдим (Ёшлик).

Ўзбекларнинг яхши қизи бор бўлса, Боши бўшми дейин, аввал сўрайин (Алпомиш).

«Бошингиз очиқми?» – у гапнинг дангалига кўчиб кўя қолади. «Яхши бир йигит бор, нима дейсиз?» Қиз жавоб беришни ҳам эп кўрмай, боши билан йўқ ишорасини берганча биздан узоқлашади (Сўзлашув нутқидан).

Боши очиқ аёлга қачон никоҳланса бўлишини Аллоҳ белгилаб кўйган, банданинг истаги билан бўлмайди (Т.Малик, Номус).

БОШИНИ ИККИ ҚИЛМОҚ [э] – фл. Уйлантириб кўймоқ, хотин олиб бермоқ.

– Биз ҳам орзу-ҳавас кўрмай ўтмасак: кўзимизнинг очиқлигида бошингни иккита қилиб кўйсак деймиз-да, ўғлим, – деди чол (М.Исмоилий, Фарғона тонг отгунча).

Йигитнинг боши икки бўлмагунча моли икки бўлмайди (С.Аҳмад, Қадрдон далалар).

Ҳа, айланай, ўзим тириклигимда болагинамнинг бошини иккита қилиб кўяй дедим (С.Зуннунова, Биринчи қадам).

БОШҚОРОНҒИ [а] – сфт. Баъзи аёлларда ҳомиладор (бўғоз; иккиқат)ликнинг дастлабки ойларида бўладиган ҳолат, аҳвол (мас., бирор нарсани тусаш ёки унга тоқат қилолмаслик).

Унинг анорга боши қоронғи (А.Қаҳҳор, Анор).

Боши қоронғига – олам қоронғи (Мақол).

Унинг иттифоқо «Coca-cola»га боши қоронғи бўлиб қолди (Мирмуҳсин, Ҳикоялар ва қиссалар).

БҮЙИДА БЎЛМОҚ [а] – *фл. Ҳомиладор (бўғоз; иккиқат) бўлмоқ. Қорнида ҳомиласи бор ҳолат; уруғланган тухум хужайранинг она организмида ривожланиб, етук ҳомилага айланишидан иборат физиологик жараён.*

– Сахро воқеасидан уч ой ўтганда бўйимда бўлиб қолганига ортиқ гумоним қолмади, – деди Ҳожихол (М.Исмоилий, Фарғона тонг отгунча).

Шу-шу қайтиб бўйида бўлмади. Бормаган доктори қолмади (С.Сиёев, Отлиқ аёл).

Қизининг бўйида бўлмаётгани Қундуз опани ташвишга солар, кечалари уйқуларини олиб қочарди (Газетадан).

БЎСА ЧАҚНАМОҚ [б] – *фл. Ўпишиш, муччилашиш. Меҳр, муҳаббат, эркалаш, ўта ҳурмат изҳори сифатида, баъзан ҳирс билан лабни, одатда, қарама-қарши жинс вакили дудоғига қаттиқ бошиш; ўпишиш.*

Севишганлар қўли бир-бирига чирмашди. Дудоқларда бўса чақнади (Шухрат, Шинелли йиллар).

– В –

ВАСЛИГА ЕТМОҚ (ВАСЛИГА ЕТИШМОҚ) [э] – *фл. Қарши жинс вакиласи билан жинсий алоқа қилмоқ, жинсий муносабатда бўлмоқ. Жинсий майлини қондирмоқ.*

Подшо шу кеча қизнинг васлига етибди (Эртақдан).

ВАЪДАСИГА ВАФО ҚИЛМОҚ [э] – *фл. Йигитнинг ваъда берган қизига уйланмоғи, хотинликка олмоқ, уйланмоқ.*

Собиржон қизга берган ваъдасига вафо қилди (Саодат, 1993. №1).

ВАҚТИНЧАЛИК ЁСТИҚДОШ [б] – *от. Ноқонуний хотин ёки эр, ўйнаш, жазман, хуштор.*

Кимга вақтинчалик ёстиқдош вафо қилибди?! (Газетадан)

– Г –

ГУЛ КЕСМОҚ [б] – фл. Ошкора бузуқчилик қилмоқ; фоҳишалик ёки фоҳишабозлик қилмоқ.

Маҳалла яқин вақт оралиғида Назирахондек гул кесганни кўрган эмас эди (Сўзлашув нутқидан).

ГУЛИНИ СЎЛДИРМОҚ [э] – фл. Зўрламоқ; мажбурлаб қизлигини олмоқ, бадном қилмоқ.

Энди гулингни алвасти чол сўлдиради (Р.Узоқова, Сайланма).

– Д –

ДАВОСИЗ ДАРД [б] – от. Ҳозирги кунда ўта оғир, давоси топилмаган касалликлар – рак, ОИТС касалига етакловчи ВИЧ вируси.

Унинг онасини давосиз дард олиб кетган (Сўзлашув нутқидан).

ДАВОСИЗ ДАРДГА УЧРАМОҚ [б] – фл. Севмоқ, ошиқи беқарор бўлмоқ.

Нечук айлай, биродарлар, бўлубман дард ила ҳайрон,

Давосиз дардга учрабман, ўларман бегумон эмди (Машраб).

ДУДОҚЛАР(И) ЛОЛАЛАНМОҚ [б] – фл. Мехр, муҳаббат, эркалаш, ўта хурмат изҳори сифатидаги аҳвол, ўпишишдан кейинги ҳолат.

Ишқ ўтидан лолалансин дудоқлар (Қўшиқдан).

ДУНЁГА КЕЛТИРМОҚ [а] – фл. Туғмоқ. Бўйида, қорнида бўлган болани ой-куни етгач дунёга келтирмоқ.

Хотини ўн йил мобайнида икки қиз, бир ўғилни дунёга келтирди (Саодат, 2009. №6).

Моҳирабонудан икки ўғил ва икки қиз дунёга келиб, тўнғичи – Азизбек... тўртинчиси бизнинг Зайнаб эди (А.Қодирий, Ўткан кунлар).

– Е –

ЕНГИЛ БЎЛМОҚ [а] – фл. Ҳомиладорлик муддати ниҳоясига етмоқ, туғмоқ. Бўшанмоқ. Қорнини, бачадонини бўшатмоқ.

Эндигина енгил бўлган оналар ўзларини узоқ муддат эҳтиёт қилишлари керак (Саодат, 2009. №6).

ЕНГИЛТАБИАТ [а] – сфт. Одобсиз, ахлоқсиз, суюғоёқ хотин.

У Ҳожжи хола сингари енгилтабиат қиз-жувонларни ахтарар эди (М.Исмоилий, Фарғона тонг отгунча).

Ўз умрини хазон қилган бир енгилтабиат аёлни хотинидан афзал кўрган бу йигит ким ўзи? (Газетадан)

Бўронбек унинг ҳовлиқмалигини, енгилтабиатлигини билар эди (Ҳ.Ғулум, Машъал).

Сиз бу енгилтабиатлигиниз билан менинг ширин рўзғоримни аччиқ қилдингиз (Гулдаста).

Касб танлашга енгилтабиатлик билан қараган киши ҳаётда читтакка ўхшаб беқўним бўлади (Р.Усмонов, Одобнома).

«Роҳатой! – деди у шиддат билан. – Мен сизни бунчалик енгилтабиат деб ўйламаган эдим» (Р.Файзий, Тош ойна).

– Ё –

ЁВУЗЛИККА ГУГУРТ ЧАҚМОҚ [б] – фл. Бузғунчилик ҳолатига олиб келадиган хатти-ҳаракат билан шуғулланмоқ, ёвузликка сабаб бўлмоқ.

Порахўр, товламачи, саводсиз «улуғ»ларимизнинг фаровон ҳаётию меҳнаткаш, билимдон, ҳалол кишиларнинг ғарибона турмуши ана шу ёвузликка гугурт чақмадимикан? (Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1989 й. 30 июнь).

ЁЛҒИЗ АЁЛ [а] – сфт. Эрсиз, эри ўлган ёки эридан ажрашган хотин.

Ёлғизлик қурсин, опажон, – Қумри дастурхонни йиғиштираётиб сўзлади (Ҳ.Ғулум, Машъал).

Айниқса, ёлғиз аёл жамиятга мослаша оладими? (Хуррият, 2018 й. 26 сентябрь)

ЁЛЛАНМА ИШЧИ [б] – от. Маълум шартлар асосида ишлайдиган, ёлланган хизматчи. Ўз истаги билан хизматкор.

Ширкат вакили ёлланма ишчиларни иккига ажратди (С.Сиёев, Ёруғлик).

ЁСТИҚДОШ [б] – сфт. Бир ёстиққа бош кўйган, бирга турмуш қурган эр ёки хотин. Никоҳ орқали қовушган эркак ва аёл (бир-бирига нисбатан).

Маманиёз ёстиқдоши ўлиб кетиб, Бир ўғилча қолган экан бўйи етиб (Ғ.Ғулом, Кўкан).

Жаҳон приёмникнинг қулоғини бураб турганда ёстиқдоши Бахшам ҳовлиқиб кириб келди (С.Нуров, Дурдона).

Бобур эса кўз очиб кўрган ёстиқдоши Ойша бегимнинг бевафолигидан қаттиқ озор чеккани учун аёл зотидан тортинар, анчамунча қизларга мойиллик билдирмас эди (П.Қодиров, Юлдузли тунлар).

ЁТИБ ҚОЛГАН ТОВАР [а] – от. Қари қиз. Ўз вақтида, яъни етилган пайтида турмушга чиқмаган қиз.

Э, уларнинг қизи ётиб қолган товар, Худоям дейишсин (Сўзлашув нутқидан).

ЕТУК ГАВДА [б] – сфт. Семиз, оғир вазндаги киши.

Унинг етук гавдаси ҳаракатларига халал берарди (Бухоронома, 2018 й. 26 сентябрь).

ЁШИ БИР ЖОЙГА БОРГАН [б] – сфт. Узоқ умр кўрган, жуда қари (одам ҳақида). Кундалик юмушларга ярамайдиган киши.

Одатда, умр бўйи вақтни қадрламаган, ёши бир жойга етиб «кўзи очилган» ижодкорлар эликдан ўтиб сермахсул бўлиб қолишади (Бухоро нома, 2013 й. 27 февраль).

ЁШИ КАТТА [б] – сфт. Ёш эмас. Ўртача ёшдаги ёки қари киши.

Устам бериб юборди. Новвойхонага бир ёши катта одам келди, уста билан суҳбатлашди, кейин шу дафтарни кўлимга тутқазиб, сизга бериб юборишди (Аҳмад Лутфи Қозончи, Қайнона).

ЁШИ УЛҒАЙГАН [б] – сфт. Анча ёшга борган, кўпни кўрган шахс.


Одам ёши улғайган сари ҳаётий тажрибаси ҳам ортиб боради, рўзғор ишларига ҳам уқувли бўлади (Саодат, 2010. №4).

ЁШИ УЛУҒ [б] – сфт. Қари, кўпни кўрган, ҳаётий тажрибаси етарли шахс.

Ёшим улуғ. Улуғларга ҳурмат қани? (Аҳмад Лутфи Қозончи, Қайнона)

ЁШИ ЎТГАН ҚИЗ [а] – от. Қари қиз, етуклик ёши ўтган, аммо турмуш қурм аган қиз бола.

Ёши ўтган қизга харидор бўлсак, уйдагилари «жон» деб беради! – деб жавоб берди (Саодат, 2010. №4).



Ёши ўтган қизларнинг «пихи қайрилган» бўлади. Балки, шу боисми, қизим фалончининг қизига ўхшаб ўтириб қолмасин деб оналар ҳам қизларини эрта узатиш тараддудига тушиб қолишади (Саодат, 2010. №4).

– Ж –

ЖИНСИЙ ОЖИЗЛИК [б] – сфт. Эркаклиги ёки аёллиги бўлмаган шахсда учрайдиган касаллик. Жинсий алоқа қила олмаслик.

Жинсий ожизлик ўта нозик хасталиқдир (Сўзлашув нутқидан).

ЖИНСИЙ АЛОҚАДАН МАҲРУМ [э] – сфт. Ҳезалак, жинсий ожиз, жинсий алоқа қила олмайдиган эркак.

Сибирь совуқларида қўл-оёқларидан айрилиб, ҳатто жинсий алоқа қилишдан маҳрум бўлиб қолган йигитлар... (Шукрулло, Кафансиз кўмилганлар)

ЖИСМОНАН ЗАИФ [б] – сфт. Ҳаракатлари чекланган ёки фалаж.

Мамлакатимизда жисмонан заиф инсонларга беминнат моддий ва маънавий ёрдам берилади (Бухоронома, 2013 й. 27 февраль).

ЖИСМОНИЙ КАМЧИЛИК [э] – сфт. Ҳезалак, жинсий алоқадан маҳрум.

Ҳаётда жисмоний камчиликларга эга бўлган кишилар бор (Бухоро оқшоми, 2015 й. 20 февраль).

ЖОНИДАН ЖОН БУНЁД ЭТМОҚ [а] – фл. Ҳаёт ҳадя этмоқ; дунёга келтирмоқ; туғмоқ.

Биз – аёллар шифокорининг ўзимизникилардан ташқари ҳам доимий бир яқинимиз борки, бу – жонидан жон бунёд этадиган аёл (Саодат, 2009. №6).

ЖОН БЕРМОҚ [б] – фл. Ўлмоқ; вафот этмоқ; ёруғ дунёдан кетмоқ; нафасдан тўхтамоқ ва ҳ.к.

Вафот қилди жонкашим, дардкашим. Ҳозир қўлимда жон берди (Ойбек, Танланган асарлар).

Занжи хумда жон берган йигитга ўхшамасди (Т.Малик, Номус).

ЖОНОН [а] – от. Бегона эркакларнинг эътиборини ўзига жалб этадиган, ўта киришимли аёл. Ўйнаш; ўз чиройи, кўриниши, қи-

лиқлари билан бегона эркакларнинг бошини айлантириб, улар билан ноқонуний жинсий алоқадан тоймайдиган бузуқ хотин.

Аксига олиб, энди моторни юргизганда ўша жонон оёқ остидан чиқиб қолди (Ў.Ҳошимов, Нур борки, соя бор).

ЖУФТИ ҲАЛОЛ (ёки **ҲАЛОЛ**) [б] – *от.* Қонуний ёки шаръий никоҳдаги эр-хотин.

Бундай одамга жуфти ҳалол бўлиш учун ҳар қандай қиз дарҳол ризолик берар деб ўйлайман, – деди шайх (К.Яшин, Ҳамза).

Бу ҳаёт ҳар кимга ҳалоли билан тотли (Сўзлашув нутқидан).

ЖУФТИГА МАЙЛИ ҚОЛМАГАН [э] – *сфт.* Қариган; жинсий алоқага лаёқатсиз киши.

Ёши бир жойга боргандан кейин жуфтига майли қолармиди? (Саодат, 2010. №4).

– 3 –

ЗАИФА [а] – *от.* Хотин, рафиқа, жуфти ҳалол ёки шунчаки аёл киши.

Оғамнинг заифаси фарзанд доғидан телба бўлиб қолди, – деди Қутбиддин (П.Қодиров, Юлдузли тунлар).

Фосиқ афанди ёшгина овозни эшитиб, кифтларини учирди... кейин томоғини қириб, майин товуш билан:

– Заифалари бўласизми, хоним афанди? – деб сўради (М.Исмоилий, Фарғона тонг отгунча).

– Аёл киши оти – жўни билан заифа дейилади, – деди полвон тишини тишига босиб (Қ.Кенжа, Нотаниш гул).

Робиани сотиб олган киши етим заифага иш буюрди (Т.Малик, Номус).

– И –

ИЖТИМОЙ ЛАРЗА [б] – *сфт.* Нотинчлик, бебошлик ҳаракати натижасида рўй берадиган салбий ҳолат.

Албатта, неча йиллар давомида ҳал этилмаган, халқнинг сабр косасини тўлдирган бундай муаммолар охир-оқибатда ижтимоий

ларзага олиб келиши муқаррар эди (И.А.Каримов, Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида).

ИККИҚАТ [а] – сфт. Бўғоз, ҳомиладор хотин. *Иккиқат аёл.*

Тўртинчи боласига иккиқат бўлганда ҳар хил йўриқлар ўргата бошладилар (Ойдин, Ҳикоялар).

ИЛОННИНГ ЁҒИНИ ЯЛАГАН [б] – сфт. Жуда айёр, муғамбир, қув, шум.

Эй, қанақа гўл одамсан ўзинг. Бектемиров илоннинг ёғини ялаган одам. Калтак еб, индамай кетаверади деб ўйлайсанми?! (С.Аҳмад, Хукм)

ИШҚИ ТУШМОҚ [б] – фл. Севиб қолмоқ, йигитнинг қизга ёки қизнинг йигитга бўлган севгиси; интим муносабат.

Ишқи тушган йигит ўзини-да унутди (Бухоронома, 2013 й. 27 февраль).

ИПСИЗ БОҒЛАНМОҚ (БЕИП БОҒЛАНМОҚ) [б] – фл. Руҳан бўшай олмайдиган, кутула олмайдиган; ҳис-туйғулари билан, одатда, қарши жинс вакилига банди ҳолатга тушмоқ. Баъзан қарз ёки муайян сир, яширин, ноқонуний иш, ҳолат билан боғлиқ тарзда бошқа кишининг измига тушиб қолмоқ.

– Ҳоким бизни Тешабойга ипсиз боғлаб бериб кетди, – деди Қудрат (М.Исмоилий, Фарғона тонг отгунча).

Мана, бўлимга ипсиз боғланиб ўтирибди. Уй-жойига қаролмайди (С.Нуров, Нарвон).

ИСЛОВОТХОНА [б] – от. Фоҳишалар фаолият кўрсатадиган, яшайдиган, кун кечирадиган жой, хона.

Исловотхоналари тараққий топган мамлакатларда адашган қизлар, йўлдан озган жувонлар кўпинча Фуод афанди тутган йўллар билан қўлга туширилар эди (М.Исмоилий, Фарғона тонг отгунча).

Жинойати устида қўлга тушган аёл покиза хонадонини исловотхонага айлантирганини, аллақачон ақлини таний бошлаган болалари кўзи ўнгида қанчалар номаъқулчиликлар қилаётганини мулоҳаза қилишга ожизмикин? (Бухоронома, 2013 й. 23 февраль)

– Й –

ЙЎЛДОШ [а] – *от.* Хотин, умр йўлдоши.

Ўзига бир йўлдошни истар, Бир қадрдон сирдошни истар (Х.Олимжон).

ЙИГИТЛИГИНИ БЕРМОҚ [э] – *фл.* Умрида биринчи марта жинсий алоқа қилмоқ.

Раҳмат полвон ўзининг илк йигитлигини Хуморхонимга берган ва баъзи қулай пайтларда дуч келса ҳам, хотинига хиёнат қилмаган эди (Э.Турон, Бу тоғлар улуғ тоғлар).

– К –

КАМКЎРК [б] – *сфт.* Кўриниши ёқимсиз, чиройли эмас; хунук. *Хотин Офтоб ойимнинг бу гапидан ҳайрон бўлди ва ўйлаб сўради:*

– Нима бало, куёвинг камкўркми? (А.Қодирӣ, Ўткан кунлар)

Эркаксиз уй файзсиз, камкўрк кўринади кўзга (М.Алавия, Болаларимнинг отаси).

Хотин, аксинча, камкўримгина, ночоргина (Бухоронома, 2013 й. 23 февраль).

КЕКСА [б] – 1. *сфт.* Узоқ яшаб катта ёшга етган, умрининг охириг босқичини яшаётган; қари. *Кекса одам. Кекса хотин. Кекса чинор.*

Қуёш энди тиғ ёя бошлаган салқин сабоҳда Қорабулоқ қишлоғидан бири кекса, бири ёш – икки отлиқ чиқиб келаверди (М.Исмоилий, Фарғона тонг отгунча).

Ана, кекса қайрағоч, унинг тунука том устига энгашиган азамат шохи қуриб қолибди (С.Аҳмад, Қадрдон далалар).

2. *от* Кекса ёшдаги шахс; қария. *Кексалар чойхонаси. Кексалар ўғити.*

Кексалар бўлса бундай иссиқ ўттиз йил бурун бўлганини, ўшанда ҳам шаҳар товадай қизиб, одамлар атроф чорбоғларда жон сақлашганини эслашарди (Мирмуҳсин, Умид).

Кексаларнинг айтишича, бундай пайтларда бирон-бир тепаликнинг устига чиқиб, жимгина қулоқ солиб ётсангиз, ернинг нафасини эшитармишсиз (Ў.Ҳошимов, Қалбингга қулоқ сол).

Аммо баъзан асрдан сўнг икки ёш йигит ҳам кексалар суҳбатига сомеъ бўлишади (Аҳмад Лутфи Қозончи, Қайнона).

КИЧИК ТИББИЙ ХОДИМ [а] – *от. Вазифа, лавозим даражаси паст, куйи.*

Мен ўн бир йил шу идорада кичик бир лавозимда ишладим (Гулдаста).

Мен шу касалхонада кичик тиббий ходим бўлиб ишлайман (Сўзлашув нутқидан).

КОСИБ [б] – *от. Оёқ кийими (этик, маҳси ва ш.к.) тикиш билан шуғулланувчи хунарманд; ямоқчи.*

Бу одамларнинг бири Фармон кал лақабли этикдўз косиб бўлиб, ёши ўтиши билан у тузалиб кетган (Мирмуҳсин, Меъмор).

Отамиз маҳалламиз косиби эдилар (Сўзлашув нутқидан).

Битта ман эмас, буви, маҳалладаги ҳамма косибларнинг аҳволи шунақа (Ғ.Ғулом, Менинг ўғригина болам).

КУЁВГА ЧИҚМОҚ (КУЁВГА ЧИҚАРМОҚ) [а] – *фл. Эр қилмоқ; жуфтлашмоқ. Эрга бермоқ.*

Куёвга чиқаётган қизнинг орзулари бир олам эди (Оила даврасида, 2013 й. 14 март).

КЎЗИ ЁРИМОҚ [а] – *фл. Бўшанмоқ, туғмоқ.*

Ўғил муборак бўлсин, болам! Ҳозиргина кўзи ёриди (Ў.Ҳошимов, Қалбингга қулоқ сол).

Бунда кўзи ёриган она вужудидан окситосин гармони чиқиб кетади ва хотиржамлик ҳамда бахтиёрлик ҳислари пайдо бўларкан (Оила даврасида, 2013 й. 14 март).

КЎЗИ ОЖИЗ [б] – *сфт. Жисмонан заиф, кўр, сўқир одам.*

Мобил телефонларга махсус программаларни ўрнатиш орқали кўзи ожиз кишилар объектни аниқлай олиши мумкин (Pars Today).

КЎЗИДАН АЙРИЛМОҚ [б] – *фл. Кўр (сўқир) бўлмоқ, кўришдан маҳрум бўлмоқ. Кўриш қобилиятини йўқотмоқ.*

Икки кўздан айрилса-да, ҳеч инсофга келмади (Оила даврасида, 2013 й. 14 март).

КЎКРАК [а] – *от. Аёллар кўксигаги бир жуфт сут бези, кўкс, эмизиш аъзоси; эмчак.*

Гулнорнинг бўйи ўсиб, кўкраги тўлишиб, бутун гавдаси қизлик латофати билан яшнаган чоғда бойвачча уни кўз тагига олиб қўйган эди (Ойбек, Танланган асарлар).

Бинафша, сен учун кўрагим – эрк ери, Бу ердан кўкларга учгил!
(Чўлпон)

КЎРИМСИЗ [б] – *сфт.* Кўриниши ё савлати, кўрки йўқ; хунук. Кўзга ташланмайдиган.

Ташдан қараганда эски, кўримсиз катта, сермол дўконда Салимбойвачча турар эди (Ойбек, Қутлуғ қон).

Сунъий сариқ соч гўзал қизларни оддий ва кўримсиз қизларга айлантиради (Бухоронома, 2013 й. 23 февраль).

«КОМАНДИР» [э] – *сфт.* Эркакларнинг ташқи кўринишини, яъни қорин қўйиб олганлигини ифодалаб келади.

«Командир», сиз нима десангиз шу-да! (Сўзлашув нутқидан)

– Л –

«ЛОЙИ» БЎШ ЭРКАК [э] – *сфт.* Хотини томонидан бошқариладиган, унинг измидан чиқмайдиган; ўзининг мустақил фикрига, йўлига эга бўлмаган маънан заиф эркак.

Лойи бўш эркак эканини ўзи исботлаб қўйди. На ота-она, на биродарлар учун қайғурди (Оила даврасида, 2013 й. 14 март).

ЛАЙЛИЮ МАЖНУН [б] – *сфт.* Йигит-қизнинг бир-бирига ошиқлиги, мафтунлиги, севгиси, муҳаббати.

Лайлию Мажнун бўлайлик, ёрим (Кўшиқдан).

– М –

МАРДИКОР [б] – *от.* Вақтинча ёки кундалик ёлганиб ишловчи ишчи.

Далада ишнинг тиғиз вақти ўтгани учун мардикорларга бундан бир неча кун илгари жавоб берилган (Ойбек, Танланган асарлар).

Мардикор бозорга аёлнинг чиқиши – XXI аср фожиаси (Сўзлашув нутқидан).

МАРЖАБОЗЛИК [э] – *от.* Хотинбозлик, бегона хотин-қизлар билан айш-ишрат қилиш; ноқонуний бир неча аёллар билан бузуқлик қилмоқ. Зино.

Биламан, маржабозлик қилмоқчи бу. Ўргилдим сиздаги маржабоздан! Ҳолинг менга маълум-ку (Э.Аъзам, Жаннат ўзи қаёдадир).

МАЪНАВИЯТИ БЎШ [б] – сфт. Беодоб ишларга мой ил киши. Бузуқчиликдан ҳазар қилмайдиган эркак ёки аёл. Тўрт томони қибла киши.

Афсуски, жамиятда маънавияти бўш аёллар ҳам бор (Газетадан).

МАЪШУҚА [а] – от. севимли; маҳбуба; хуштор, жазман.

Парво қилма, ўлиб кетди аждаҳо, Келиб маъшуқини топгандир Шакар (Ширин билан Шакар).

Моҳинур лутфдан йироқ, назокатдан бебаҳра туябонлар ва ҳаёсиз маъшуқалар кўнгилларини шу тарзда бир байт айтиш ила хушлайверди (Т.Малик, Номус).

МИЖОЗИ ЗАИФ [э] – сфт. Ҳезалак, эркаклиги йўқ; жинсий алоқага лаёқатсиз.

Ана шундай «яланғоч санъат»нинг ижодкорлари ҳам, ишқибозлари ҳам асосан мижози заиф кимсалар эканлиги айтиш ҳақиқат (Pars Today).

МУҲТОЖ ТАБАҚА [б] – от. Моддий қийинчиликдаги ҳаёт; бечорачиликда яшовчилар. Ўзини ёки оиласини боқа олмайдиган, бечораҳол. Муҳтожлик тортмоқ. Муҳтожликда яшамоқ.

Анвар Мурод Покистон ҳукумати, давлат ишлари устида тўхталиб, фалокатларимиз кўп, айниқса, халқимиз қашшоқлик, муҳтожлик чангалида деди (Ойбек, Нур қидириб).

Одатда, ҳимояга, ёрдамга ёки алоҳида ғамхўрликка муҳтож табақа вакиллари ҳаётини ташвишлардан холи этиш, улар осмонини қора булутлардан тозалаш ҳар доим ҳам муқаддас бурч бўлиб келган (Бухоронома, 2018 й. 22 январь).

– Н –

НАСИБАСИ ҚЎШИЛМОҚ [б]– фл. Бирор нарсага (масалан, тансиқ таомга; тўй-маъракага) режалаштирилмаган ҳолатда шерик бўлмоқ. Уйланмоқ, турмуш қурмоқ.

Анварнинг сизга ўхшаган қизга насибаси қўшилса, ақли тезроқ кирар эди (А.Қодирий, Мехробдан чаён).

Тўйга Россияда яшовчи дўстларимизнинг ҳам насибаси қўшилган экан-да (Сўзлашув нутқидан).

НАФС ҚУЛИ [б] – *от.* Нафсидан бошқани ўйламайдиган, очкўзлик, баднафслик иллатига дучор бўлган кимсалар.

– Нафс қули... Биров ишдан келса, сиз ошдан келасиз, – деди Мели полвон жаҳли чиқиб (П.Турсун, Ўқитувчи).

Минг афсуски, айримлар нафс қулига айланиб, топган-тутганларига қаноат қилолмайдилар (Карвон қўнғироғи, 2013 й. 7 февраль).

НАФСГА ЭРК БЕРИШ [б] – *от.* Ҳаддан ташқари баднафслик.

Огоҳлик, зийраклик ҳар доим ва ҳар қачон бизнинг энг содиқ қўриқчиларимиз эканини, меҳнатсиз келадиган бойлик инсонга вафо қилмаслигини, нафсга эрк бериш биринчи ғанимимиз эканини ёдингизга солиб қўймоқчиман, холос (Маърифат, 2012 й. 22 август).

НАФСИ АММОРА [б] – *сфт.* Кофирлар ва мунофиқларнинг нафси. Аммора босқичи нафснинг зулматдаги босқичидирки, у босқич фақат тубан ахлоқ манбаидир.

Нафси аммора инсонни ҳар доим ёмонликка ундаб туради. Агар вақтида унинг давоси қилинмаса, инсон қалбини хароб қилиши мумкин (Газетадан).

НАФСНИ ҚОНДИРМОҚ [э] – *фл.* Шаҳвоний ҳирсни қондириш, бирор қиз (аёл)ни зўрлаш.

Бундай ўз нафсларини қондирмоқчи бўлган зотлар бировнинг ҳалол хотинига кўз тикиб, ҳаётда ҳеч бўлмаган ёлғон сўзларни қилиб, ширингина бир турмушни бузмоқчи бўладилар (Ҳамза, Тухматчилар жазоси).

Бойваччанинг кўзида ҳар бир хотин унинг нафси, ҳирси учун яратилган чиройли мева эди (Ойбек, Танланган асарлар).

Куёв нафсини қондиргач, бир пиёла шароб ичдию маст уйқуга кетди (Т.Малик, Номус).

НИКОҲНИ БУЗМОҚ [б] – *фл.* Ажрашмоқ. Оилавий муносабатларда эр-хотиннинг келишмовчилиги, бир-бирини тушунмаслиги сабабли ажрашиб кетиши.

Тан олиш керакки, ҳозирги кунда никоҳ бузилишлари кўп кузатилмоқда (Оила даврасида, 2013 й. 14 март).

НОГИРОН [б] – *сфт.* Таъсир қилмайдиган, таъсир ўтказиш қобилияти йўқ. Ишга яроқсиз бўлиб қолган, ожиз (одам ёки унинг аъзолари ҳақида). Ногирон бола. Унинг бир қўли ногирон.

Пўлатжон ногирон оёғига қараб хўрсиниб қўйди (С.Аҳмад, Қадрдон далалар).

Ўшанда у полиомиелит касаллигига қарши эмлаш жараёнида шифокорнинг қўпол хатоси туфайли ногирон бўлиб қолганди (Газетадан).

НОМИГА ЭР [э] – *сфт.* Эркак ва аёл никоҳини бекор қилдирмаган бўлсалар-да, бир уйда бирга яшамаслиги. Эркакнинг аёлига нисбатан мажбуриятларини бажармаслиги. Ўз хотинидан руҳан, жисмонан узоқлашган эркак.

У номига эр эди, аслида. Буни фақат уларнинг ўзи биларди, холос (Газетадан).

НОМУСИНИ БАРБОД ЭТМОҚ [э] – *фл.* Зўрлик ишлатиб, қўрқитиб ёки жабрланувчи (масалан, аёл киши)нинг ожизлигидан фойдаланиб жинсий алоқа қилиш.

Уйда ёлғиз қолганим кезде бир нобакор бадбахт бостириб кириб, номусимни барбод этган (Т.Малик, Номус).

НОМУСИГА ТЕГМОҚ [э] – *фл.* Зўрламоқ, қизлигини олмоқ.

Номусга тегиш деганда аёл жинсидаги шахс билан унинг эркига қарши ёки эркидан ташқари зўрлик ишлатиб, қўрқитиб ёхуд жабрланувчининг ожизлигидан фойдаланиб, табиий усулда жинсий алоқа қилиш тушунилиши лозим (Ўзбекистон Республикаси Олий суди пленумининг қарори).

НОМУСИНИ ЕРГА УРМОҚ (НОМУСИНИ ЕРГА БУКМОҚ) [б] – *фл.* Шарманда қилмоқ, ҳамманинг олдида обрўйини тўкмоқ.

«Ахир, – деди кампир, – мен энди қандай қиламан?! Етти номусимни ерга букдинг, жувормаг!» (Ғ.Фулом, Ёдгор)

Шунга қарамай, у ўзини номуси букилган, ҳақоратланган деб билди (С.Анорбоев, Оқсой).

НОМУСИНИ БУЛҒАМОҚ [э] – *фл.* Қизлигини олмоқ, зўрламоқ, номусини тўкмоқ, иффатини ўғирламоқ.

Жондан кечсам кечаман, аммо номусимни булғашга зинҳор йўл қўймайман, – деди Мўмина ғазабли овозда (Т.Малик, Номус).

НОПОК [б] – *сфт.* Ҳеч нарсадан ҳазар қилмайдиган, ҳаром-хариш ишлардан ҳам қайтмайдиган; қалб. Ҳаром. Тоза эмас. Нопок одам.

Ташмачи ҳам нафсига кучи етмаган, виждони нопок нусхалар жумласига киради (Газетадан).

Шунда Маъсумани кучли титроқ босди. Нопок қўлни силтаб ташлади-да, юзуриб кетди (Т.Малик, Номус).

НОПОКЛИК ҚИЛМОҚ [э] – фл. Бузуқлик қилиб, зўрламоқ; иззат-нафсига тегмоқ, қизлигини олмоқ.

– Эй беномус, нопоклик қилишдан ор қилмайсизми? – деб бақирди Мўмина (Т.Малик, Номус).

– О –

ОҒЗИ БУЗУҚ (ёки **ОҒЗИ ЁМОН**) [б] – сфт. Сўкинадиган, оғзидан ҳақорат сўзлар чиқадиған одобсиз шахс.

Кашанда ва оғзи бузуқ отага қаршилик кўрсатиш мумкинми? (Газетадан)

ОҒЗИНИ ШИРИН ҚИЛМОҚ [э] – фл. Бирор нарсага ўргатиб кўймоқ. Ўпмоқ, муччиламоқ. Пора бермоқ.

– Қани, оғзингизни ширин қилинг, шаҳзодам! – Оғзини ширин қилиш... – деди Баширжон... – оғзини оғиз билан ширин қиладилар, малика! (Неъмат Амин, Елвизак)

Бошлиқнинг оғзини ширин қилиб ишини битирадиғанлар тоифасидан эмасми? (Сўзлашув нутқидан)

ОҒИРОЁҚ [а] – сфт. Ҳомиладор, бўғоз хотин.

Тоғай оғироёқ хотинларга хос сусткашлик билан ўчоқ бошида куймаланиб юрган Марҳаматга эътибор бермади (Ёшлик).

ОЁҒИДАН АЙРИЛМОҚ [б] – фл. Бирон фалокат натижасида чўлоқ бўлиб қолмоқ. Ногирон бўлмоқ.

Ҳаёт синовлари уни синдирилмади. Ҳатто икки оёғидан айрилса-да, умидини сўндирмади (Бухоронома, 2013 й. 23 февраль).

ОЗОДЛИҚДАН МАҲРУМ БЎЛМОҚ [б] – фл. Қонунга хилоф ножўя иши, жинояти туфайли қамалмоқ, жазосини ўтамоқ.

Озодликдан маҳрум қилиш жиноят ҳуқуқида энг оғир жазо саналади (Ҳуқуқ ва бурч).

ОЙБОШИ [а] – от. Хотин-қизларнинг ҳайз кўриши.

Ойбоши – балоғатга етган қиз болада ва бола туғиш ёшидаги аёлларда ҳар 26 – 29 кунда, баъзан 21 – 24 кунда (қисқа цикл) содир бўладиган биологик жараён (Саодат, 2009. №2).

ОЛА ХУРЖУН БҮЙНИГА ТУШМОҚ [э] – *фл.* Хотин олмоқ. Рўзгорли бўлмоқ. Рўзгор ташвишларини зиммасига олмоқ.

Ҳар бир йигитнинг бўйнига ола хуржуннинг тушмоғи бор (А.Жумақул, Юракка сифмаган гаплар).

ОЛИБ КЕТАДИГАН ДАРД [б] – *от.* Давосиз, охири ўлимга олиб келадиган касаллик тури. Масалан, рак; ОИТС касалига етакловчи ВИЧ вируси касалликлари.

Бечора, олиб кетадиган дардга йўлиқибди, Оллоҳ шифосини берсин! (Газетадан)

ОЛИЙ ЖАЗО [б] – *от.* Ўлим; жазонинг энг оғир тури.

Мамлакатимизда 2005 йилда олий жазо бекор қилинган эди (Постда, 2014 й. 14 апрель).

ОРТИҚЧА ВАЗН [б] – *сфт.* Жуда семиз, бесўнақай киши.

Ортиқча вазн одатда, касалликка сабаб бўлади (Саодат, 2009, № 6).

ОСОН ДАРОМАД ТОПУВЧИ [а] – *от.* Фоҳишалик иши билан шуғулланувчи киши.

Осон даромад топиш илинжида барибир яширинча йўллар билан бу ишни давом эттираверишади (Постда, 2004 й. 14 апрель).

ОТА [э] – *от.* Қари, ёши бир жойга етган киши.

Ота, дардинг йўқми? Нега хурсандсан? Устингда юк, хиргойи қилиб кетяпсан? – деб сўрашибди (Аҳмад Лутфи Қозончи, Қайнона).

ОТАСИ [э] – *от.* Эр, оила бошлиғи. Хотиннинг эри.

Дунёнинг ҳамма ташвиши сизда, отаси, – деди Маъсума бека Меъморга тасалли бермоқчи бўлиб, – бу иш ҳам худонинг иродаси (Мирмуҳсин, Меъмор).

ОТАХОН [э] – *от.* Қари, ёши улуғ одам.

Давранинг тўридаги отахонлар базмга файз киритиб турибди (Оила ва жамият, 1997 й. 23 апрель).

ОҚСОҚОЛ [э] – *от.* Қари, ёши ўтган; баъзан бошқаларга бош бўла оладиган киши.

Оқсоқолнинг дуоларини албатта олиш керак, болам. Қариларнинг дуосида гап кўп (Газетадан).

– П –

ПАНЖА ОРАСИДАН ҚАРАМОҚ [б] – фл. Ишга, масалага расмиятчилик, совуққонлик билан қарамоқ, бепарво ёндашмоқ.

Нега унинг қилмишларига панжа орасидан қарайсиз? (Ш.Рашидов, Бўрондан кучли)

Бироқ бу ҳолат шаҳар «Сувоқова» корхонаси, шунингдек, фуқаролар мурожаатларига панжа орасидан қараётган бошқа баъзи идоралар мутасаддиларига сабоқ бўлиши керак (Бухоронома, 2013 й. 23 февраль).

ПАНЖАРА ОРТИГА РАВОНА БЎЛМОҚ [б] – фл. Қонунга хилоф иши, жинояти учун қамалмоқ.

Акс ҳолда, улардан баъзилари ҳатто панжара ортига равона бўлишлари ҳам муқаррар эди (Бухоронома, 2013 й. 23 февраль).

– Р –

РАНГЛИ ТЕЛЕВИЗОР [а] – от. Аёлларнинг ҳайз кўриш даври.

Рангли телевизорда цикл бузилибди (Сўзлашув нутқидан).

РАФИҚА [а] – от. Умр йўлдоши, хотин, ёр.

Фарзандим, отам, рафиқам – мендин сўнг ёнар чироғим – ана шу дўстларим (С.Сиёев, Ёруғлик).

Ишдан ҳориб қайтдинг, дилгир, ҳойнаҳой, Рафиқанг узатди бир пиёла чой, Унут бўлди шунда зоринг, чарчоғинг, Кўнгилдан бир нафас кетди ғуборинг (А.Орипов, Йиллар армони).

Юзидан мулойимлик, эрига итоат, тўғрилиқ маънолари томиб турган бу хотин қутидорнинг рафиқаси – Офтоб ойим (А.Қодирй, Ўткан кунлар).

«РАИС» [э] – от. Қорин қўйиб олган, беўхшов кўринишли эр-какка кинояли тарзда қўлланилади.

О-о-о, раис бува бўлибсиз-ку! (Сўзлашув нутқидан)

САВДОЙИ БЎЛИБ ҚОЛМОҚ [б] – *фл.* Дилгир, дилгирликка мойил; маъюс, ғамгин. 1. Ақлдан озган, телба.

– *Жинни бўлибсан! Савдойи бўлиб қолибсан! – деди Салимхон Обидий унга [хотинига]* (Мирмуҳсин, Умид).

Ҳали оқ-қорани танимаган йигитча бу қийинчиликлар, виждон изтироблари олдида савдойидек каловланиб, тақдирнинг аёвсиз ўйинларидан гаранг бўлиб қоларди (С.Аҳмад, Уфқ).

2. Бирор кимса, нарса дардида эс-хушидан айрилган.

Унинг [Саломатнинг] кўйида савдойи бўлиб қолган эдим (Н.Қобил, Унутилган соҳиллар).

Хотинлар: «Бечора чол! Суюкли қизидан айрилиб, савдойи бўлиб қолди!» – деб пичирлашар эди (О.Ёқубов, Излайман).

[Бўронбой:] Ишқ дарди бедаво дард: рўйрост гапирсам, ишқ йўлида савдойи бўлганман (К.Яшин, Ҳамза).

САРИҚ [б] – *от.* Жигардаги жиддий салбий ўзгаришлар туфайли тери, кўз оқининг сарғайишидан иборат оғир ва юқумли касаллик номи; гепатит.

У сариқ касаллигига чалинибди (Сўзлашув нутқидан).

СОЧИ ОҚАРГАН [б] – *сфт.* Қари, ёши ўтган киши.

Йигирма беш йил кейинги ҳаётимни хаёлан тасаввур қиламан. Сочларим оқарган, ўғлим уйланган (Аҳмад Лутфи Қозончи, Қайнона).

Тўрдаги стол қаршисида сочлари оқарган доктор ўтирарди... Бу аёл қишлоқда «Хури дўхтир» деб танилиб кетган (Ў.Ҳошимов, Баҳор қайтмайди).

СОЧИ ТЎКИЛГАН БОШ [б] – *сфт.* Кал, сочи қолмаган бош. Ялтирбош.

Пенсилвания университети олимлари сочи тўкилган инсонларнинг бошини ўрганганларидан кейин шундай хулосага келганлар: ялтирбош одамлардаги сочларнинг илдизи сони сочи кўп одамлардаги илдизлардан кам эмас (Интернет маълумотидан).

СОЧИГА ОҚ ОРАЛАГАН [б] – *сфт.* Қариган, ёши ўтган киши.

Сочига оқ оралаган бир аёл дорихонага кириб, дори сотувчига: «Оқарган сочларга бирор нарса борми?» – деди. Сотувчи: «Ҳа, хоним,

менда оқ соч толаларига чуқур эҳтиром бор», – деб жавоб берди!
(Интернетдан)

СЎНГГИ МАНЗИЛ [б] – *от.* Ўткинчи умрининг охирида бориладиган жой; қабр, гўр, гўристон, қабристон.

Ўлим тўшагида сўнги манзилга тайёргарлик кўраётганида ишимиздаги муваффақиятни кўзимизда ёш билан нишонлаётган бу – бизлармиз (Бухоронома, 2013 й. 23 февраль).

– Т –

ТАЙЁР НАРСА (ТАЙЁРГИНА ҚУШ) [а] – *от.* Ўйнаш, эркаклар билан ноқонуний яшаб, яна бошқасига илакишиб кетадиган аёл; фоҳиша.

Бу сафар ҳам «тайёр нарса»ни ташлаб кетгиси келмади. Уни уйига – Чорсуга кузатиб борди (Ў.Ҳошимов, Нур борки, соя бор).

ТАЛОҚ ҚЎЙМОҚ [э] – *фл.* Эр томонидан хотиннинг ҳайдалиши; шаръий ажрашиш; эрнинг хотини баҳридан ўтиши, жавобини бериши.

Эртаси эр ўзига келганида хотинини талоқ қўйиб юборгани ёдига тушди (Саодат, 1997. №1).

ТИНИҚ СУВНИ ЛОЙҚАЛАТМОҚ [б] – *фл.* Бузғунчилик қилмоқ. Ҳамма замонларда тиниқ сувни лойқалатувчилар бўлган (Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1989 й. 30 июнь).

ТИНЧИ ЙЎҚОЛМОҚ [б] – *фл.* Севмоқ, яхши кўрмоқ. Ишқи тушмоқ. Мойил бўлиб қолмоқ.

Сарвар қизни кўргандан буён тинчини йўқотган (Бухоронома, 2013 й. 23 февраль).

ТОҲИРУ ЗУҲРО [б] – *от.* Севишмоқ, йигит-қизнинг бир-бирига кўнгили қўйиши; атрофдагиларни унутар даражада бировга мафтун бўлиш.

Ассалому алейкум, Тоҳиру Зуҳролар, бормисизлар? (Ҳамза, Майсаранинг иши)

ТУЗАЛМАС ДАРД [б] – *от.* Давосиз, охири ўлимга олиб келадиган касаллик тури. Масалан, рак, ОИТС касалига етакловчи ВИЧ вируси касалликлари.

Ер юзиде тузалмас дардлар кўпайиб кетяпти (Сўзлашув нутқидан).

ТҮЙ КУНИДАН ҚЎРҚМОҚ [б] – *от.* Жинсий ожиз ёки эркаклигидан ҳадиги бор одам. Ёки номусидан айрилган, аммо уни ошкор этмаган қиз.

Мен эса тўй кунидан жуда қўрқаман. Нақадар уят, ахир, менга тушган қизнинг бир умр қиз бола бўлиб ўтишига қандай чидайман? (А.Жумақул, Юракка сиғмаган гаплар)

ТЎЛАДАН КЕЛГАН [б] – *сфт.* Жуссаси ёки бирор аъзоси бўлиқ этли, семиз. *Тўла одам.*

Ўрта бўйли, тўладан келган, лекин кенг юзининг гўштлари сарғайиб, салқиб тушган, эллик саккиз ёшларда бўлган касалнамо хотин аста-секин юриб келаверди (Ойбек, Танланган асарлар).

Тўрдаги кичкина эшик очилиб, ичкаридан тўла юзли... белига қилич осган қирқ беш ёшлар чамасида бир киши кўринди (А.Қодирий, Ўткан кунлар).

Тўла, қип-қизил мағиздек аёл бир ҳафтада чўпдек бўлиб қолган эди (Ў.Умарбеков, Ёз ёмғири).

Тўлача аёл айқаш-уйқаш сўз оқими орасидан совуқ ердан тўппатўғри ва мағрур кўтарилаётган гулларга боқар ва унинг қиёфасида ҳайрат зоҳир эди (Жаҳон адабиёти, 2015. №5).

ТЎЛИҚ ШАКЛ [б] – *сфт.* Эт қўйган; семиз, тўлишган.

Зайнаб Қумушнинг тўлиб етмаган гавдасига ва ғубор тегмаган хуснига ҳайрон бўлиб, мулоҳазасини айтишдан қўрқди (А.Қодирий, Ўткан кунлар).

Салтанатхон курортдан қайтиб келдиларми? Ойдаи тўлиб, кундай қулиб келгандирлар, бўлмасам? (С.Абдуқаҳҳор, Санамай саккиз дема)

ТУНГИ КАПАЛАК [а] – *от.* Фоҳиша, танасини сотиб кун кўрадиган бузуқ аёл.

Тунги капалакларни жазолаш керак (Интернет маълумотидан).

ТУРМУШИ БЎЛМАСЛИК [б] – *фл.* Ажрашмоқ. Эр-хотинлик ҳолати ва шу ҳолатдаги ҳаётнинг барҳам топиши.

Агар шундай ташлаб қўйила берса, ўртага совуқчилик тушади, оқибатда турмушлари бўлмайди (Р.Файзий, Чўлга баҳор келди).

ТУРМУШ ҚЎРМОҚ [б] – *фл.* Эрга тегмоқ; уйланмоқ; хотин олмоқ, қовушмоқ.

Йигирма йил турмуш қуриб, бола кўрмадим (И.Раҳим, Чин муҳаббат).

Бироқ найрангбоз Абдувоҳид Хурихон Сатторова билан ҳам силлиққина турмуш қилиб кета қолмади (Муштум).

Она шўрлик йигирма икки ёшида бева қолиб, шу-шу турмуш қурмади (Ў.Усмонов, Сирли соҳил).

Турмуш қурганига уч йил бўлибди-ю, ҳамон бу уйга кўникиб кетолмайди (Саодат, 2015. №4).

ТУРМУШ ЎРТОҒИ [б] – от. Эр-хотинлик ҳолатидаги шахснинг ҳар бири (эр ва хотин бир-бирига нисбатан).

Рустам уйига ширакайф келди. Бир оздан сўнг турмуш ўртоғи Шоҳиста ҳам ишдан қайтди (Газетадан).

Айрим роллар ёқиб қолса, менга беринг десам, бу рол сизга тушмайди деб турмуш ўртоғим очиқчасига айтардилар, қайсарлик қилсам, койиб берардилар (Саодат, 2009. №6).

ТУРМУШГА УЗАТМОҚ [а] – фл. Қиз болани балоғатга етказиб эрга бермоқ.

Катта ўғли Фаррухни уйлантирди, қизи Маъмурани ҳам турмушга узатди (Бухоронома, 2013 й. 27 февраль).

ТУРМУШГА ЧИҚМОҚ [а] – фл. Эрак билан никоҳ орқали қовушмоқ; эрга тегмоқ, Эрли бўлмоқ.

Қизларнинг эрки ўзида, севиб, синашиб турмушга чиқишади (Гулдаста).

Тўртинчи синфга ўтганимда онам ўзи билан мактабда ишлайдиган ўқитувчига турмушга чиқди (Ў.Ҳошимов, Қалбингга қулоқ сол).

– У –

УНАҚА «КАСБ» [а] – от. Нопок йўл билан танасини сотиб кун кечирадиган бузуқ аёлнинг иши, хунари.

Улар ҳали ёш, унақа «касб»имни тушунишмайди, она (Газетадан).

УЙЛАНМОҚ [э] – фл. Бирор қиз ёки аёлни ўз никоҳига олмоқ, расмий никоҳ йўли билан қовушмоқ; оила қурмоқ (эр киши ҳақида).

Толибжонбойнинг икки ўғли уйланган, бир қизи эрга теккан, набиралари ҳам бор (Ойбек, Танланган асарлар).

Қўшилар шу Ваҳобжон уйлана қолсайди, ўзидан тинчиб кетар-миди дейишади (С.Аҳмад, Тоғ афсонаси).

Йигит бирдан уйланиш тараддудига тушди-ю, бир ҳафтанинг ичида тўй ҳам бўла қолди (А.Қаҳҳор, Хотинлар).

Бир ойча аввал отаси уни Тошкентнинг Қашқар маҳалласидаги бадавлат хонадонлардан бирининг қизига уйлантирган (Х.Фулом, Машғал).

Ҳайдар ота бош бўлиб [Асрорқулни] бир бева хотинга уйлантириб қўйди (А.Қаҳҳор, Асрор бобо).

УЙЛИ-ЖОЙЛИ ҚИЛМОҚ [э] – фл. Уйлантирмоқ, хотин олиб бермоқ.

Ахир уйлик қилиш ота-онанинг бўйнида, болам (Саодат, 2010. №5).

УЗАТМОҚ [а] – фл. Турмушга чиқармоқ, эрга бермоқ.

Қиз бола ота-онага омонат, узатиб тинчий! (С.Зуннунова, Янги директор)

Келин қилсанг – йўқдан қил, қиз узатсанг – борга қил (Қанотли сўзлар).

Сиз узатишни хоҳламасангиз ҳам, балки, у эрга тегишни хоҳлаб қолгандир (Ў.Ҳошимов, Қалбингга қулоқ сол).

УЯТЛИ ЖОЙ [а] – от. Аёллар жинсий аъзоси. Аврат.

Уятли жойида касаллик бор, болам (Газетадан).

УМР ЙЎЛДОШИ [б] – от. Оилада хотин ёки эрга нисбатан қўлланади. Турмуш ўртоғи.

Ё Раббим, Сенга бандалик қиладиган, мени Сенинг йўлингдан қўймайдиган умр йўлдошга рўбарў қил (Аҳмад Лутфи Қозончи, Қайнона).

УНАҚА ДАРД [б] – от. Давосиз, охири ўлимга олиб келадиган касаллик тури. Масалан, рак, ОИТС касалига етакловчи ВИЧ вируси касалликлари.

Айланай, унақа дардлардан Аллоҳнинг ўзи асрасин (Сўзлашув нутқидан).

– Ф –

ФАРЗАНД КУТМОҚ [а] – фл. Ҳомиладор (бўғоз) бўлмоқ. Қорнида ҳомиласи бор бўлмоқ; иккиқат бўлмоқ.

Фарзанд кутиш остонасида бўлган аёллар ўзларини асрашлари, яхши еб, хуш кайфиятда юришлари лозим (Саодат, 2009. №2).

ФИКР ҚАРАМЛИГИ [б] – от. Шахсий фикрга эга бўлмаслик. Манқуртлик.

Фикр қарамлиги, тафаккур қуллиги эса ҳар қандай иқтисодий ёки сиёсий қарамликдан ҳам кўра даҳшатлидир (Тафаккур, 1998. №2).

– Х –

ХИЗМАТЧИ [б] – от. 1. Кўча-кўй, ҳовли ва боғларга сув сепиб, супуриб-сидириб юрувчи хизматкор; қоровул.

Ўнлаб хизматчилар ҳафсала билан ер супурган, мешкобчилар этакларини белбоққа қистириб, сув сепган (С.Сиёев, Аваз).

Эшикда қари хизматчи Ҳожи Солиҳ пайдо бўлди. У дарвишнамо, камтарин, хаёлчан киши эди (Ойбек, Навоий).

2. Идора ёки муассасаларда хоналарни супуриб-сидирувчи ходим.

Икки йилдан кейин бозорнинг хизматчиси унга одам қўйди (Ш.Холмирзаев, Оғир тош кўча).

ХОТИНИНИНГ ИЗМИДА (ХОТИННИНГ ЙЎРИҒИДА) [э] – сфм. Хотин кули, хотини таъсири туфайли яқинларидан узоқлашган, уларнинг ҳол-аҳволидан хабар олмайдиган оқибатсиз эркак.

У ҳамон хотинининг измида юради (Сўзлашув нутқидан).

ХЎЖАЙИН [а] – от. Эр, оила бошлиғи, умр йўлдоши.

Хўжайиним вафот этганларидан сўнг фарзандлар тарбияси, рўзғор ташвиши зиммамга тушди (Оила ва жамият, 1998 й. 19 январь).

– Ч –

ЧИМИЛДИҚ КЎРМАСЛИК [а] – фл. Эр қилмаслик. Маълум сабабларга кўра қизнинг турмушга чиқмаслиги. Баъзан ёши ўтган қизнинг тўйсиз (масалан, ёши катта, аввал уйланган; ажрашган ёки хотини ўлган эркакка) турмушга чиқиши натижасида чимилдиққа киритилмаслиги.

Бечора, ёшлиги ўтиб кетди, чимилдиқ кўролмади (Газетадан).

ЧОРАКТА [б] – *от.* Ароқ, вино; умуман, маст қиладиган ичимлик.

– *Чоракта топиладими? – деди Ориф ака* (Асқад Мухтор, Чинор).

– Ш –

ШАРМАНДАЛИ ИШ [б] – *от.* Фоҳишалик. Танини сотишдек ахлоқсиз, бузуқ иш билан шуғулланиш. Ўғрилик. Бировнинг мулкига кўз олайтириш.

Шармандали иш билан шуғулланишингни билардим-у, туҳматчилигингни билмасдим (С.Аҳмад, Ҳукм).

«*Шармандали иш*»га қўл ураётган қизлар, афсуски, орамизда учраб туради (Сўзлашув нутқидан).

ШАҲВОНИЙ [б] – *сфт.* Ҳирсли, эҳтиросли; шаҳватпараст; шаҳват ва шаҳватпарастликка оид, шаҳват билан боғланган эркак ёки аёл.

Бировнинг аёлига шаҳвоний қараш ярамасликдир, болам (Саодат, 2009. №2).

ШАҲВОНИЙ ҲИРС [б] – *от.* Кишиларнинг ҳайвоний истаклари. Шаҳват ва шаҳватпарастликка оид, шаҳват билан боғланган. Шаҳвоний ишқ. Шаҳвоний ҳирсга берилмоқ.

Раҳматилла Обидий ҳеч кимнинг хаёлига келмаган, жуда-жуда хунук бир шаҳвоний ҳирс ортидан жиноят қилиб қўйиб, беш йилга кесилиб кетди (А.Қаҳҳор, Қўшчинор чироқлари).

Унда эркакларни ўзига тортадиган шаҳвоний ҳирс, сирли бир жозоба мужассам эди (Н.Қобил, Унутилган соҳиллар).

Шаҳвоний ҳирс ва беҳаёликни, енгил-елпи ҳаётни тарғиб қилувчи оҳанг ва тасвирлар тақиқланади (Саодат, 2009. №2).

– Э –

ЭГА [э] – *от.* Эркак жинсига мансуб киши; эркак. Оилавий муносабатларда эр тушунчаси ўрнида қўлланилади.

Эгаси йўқ аёлга қачон никоҳланса бўлишини Аллоҳ белгилаб қўйган, банданинг истаги билан бўлмайди (Т.Малик, Номус).

ЭХТИЁЖ ЖУДА КАТТА БЎЛГАН ХИЗМАТ [а] – *от.* Бегона аёл билан бегона киши (эркак)нинг учрашувига, кўшилиувига воситачилик қилиб кун кўрадиган одам; далла. Кўшмачи.

Бу – менинг ишим. Биз эҳтиёж жуда катта бўлган хизматни кўрсатяпмиз. Кўнгли нозик миллиардерга эрга тегмайсизми? (Бу-хоронома, 2013 й. 23 февраль)

– Ю –

ЮКЛИ [а] – *сфт.* Ҳомиладор, ҳомиласи бор. Бўғоз. *Юкли хотин.*

Пулмиз йўқлиги етмай, саргардон сарғайганимиз етмай, бунинг устига, юкли бўлиб қолганим иккимизни қайғудан қайғуга отарди, – деди Ҳожи хола (М.Исмоилий, Фарғона тонг отгунча).

ЮКЧИ [э] – *от.* Юк ташиш, ортиш, тушириш билан шуғулланувчи ишчи. Хизматкор.

Степан душман қўлига ўтиб кетган кичик бир пароходга юкчи бўлиб кирди (А.Мухтор, Қорақалпоқ қиссаси).

Хўжабеков қуни билан елкасидан беш пудлик қоп тушмаган юкчидай эшикка суюнди (С.Анорбоев, Оқсой).

– Я –

ЯЛАНГОЁҚ [б] – *сфт.* Қашшоқ, ўта камбағал, яланғоч одам.

Эғнида бир энги тирсакдан, бир бари тамоман йўқ илма-тешик бўз яқтак, ялангоёқ чолни кўриб Ғуломжоннинг юраги эзилиб кетди (М.Исмоилий, Фарғона тонг отгунча).

ЯЛТИРБОШ [б] – *сфт.* кал 1. Бошнинг сочи тўкилган. Кал. Кал-бош.

Хайр, майли, – деди бошқа бир ишчи, – уларнинг ялтирбошларини милтиқ дориси билан даволаймиз (С.Айний, Куллар).

2. Сочи бутунлай ёки қисман тўкилиб кетган киши.

Қалинроқ ўртоғим Аъзам кал ҳамма ялтирбош сингари гапга чечан, қочириқ гапларни гапириб муллаваччаларни ва ҳаттоки пешқадамларни қулдирар эди (М.Муҳаммаджонов, Турмуш ури-нишлари).

Мутахассислар фикрича, ялтирбошлик сабаби бошда соч йўқлигида эмас, балки тўқилган соч ўрнига ўсиб чиққан янги сочларнинг сифатида (Сўзлашув нутқидан).

ЯНГЛИШМОҚ [б] – фл. 1. Ҳақиқатга ёки бирор қонун-қоидага хилоф иш тутмоқ; хато қилмоқ, адашмоқ.

– Жияним сўзларидан янглишиб кетсалар, нима бўладир?

– Нега янглишсинлар, улар билганларидан ортиқни, албатта, сўзламаслар (А.Қодирий, Ўткан кунлар).

2. Иш-фаолиятда, ҳаётда нотўғри йўл тутмоқ.

Мен, бола-чақали одам, янглишиб, йўлдан озиб сизга уйланган эканман, никоҳимдан чиқдингиз, мени қутманг (Ойбек, Танланган асарлар).

Якка қолган Саодат қадрининг поймол этилганидан, янглишганидан тўйиб-тўйиб йиғлади (Ёшлик).

ЯҚИНЛИК ҚИЛА ОЛМАСЛИК [э] – фл. Заифлик натижасида жинсий алоқа қила олмаслик.

У «Эр менга яқинлик қила олмади» деган даъво ила ундан ажрамоқчи (Шайх Муҳаммад Солиҳ, Бахтли оила).

– ў –

ЎҚҚА УЧМОҚ [б] – фл. Ўлмоқ. Ҳаёти тугамоқ, яшашдан тўхтамоқ, шахид бўлмоқ.

Вой, узоқларда ўққа учган болам (Мирмуҳсин, Меъмор).

ЎҒИЛ (ҚИЗ) КЎРМОҚ [а] – фл. Туғмоқ, бўйида, қорнида бўлган болани оё-қуни етгач дунёга келтирмоқ.

Хотини ўн йил мобайнида икки қиз, бир ўғил кўрди. Ғанижоннинг хотини туғмай юриб-юриб, бирданига қўчқордай ўғил кўрди (А.Қаҳқор, Асарлар).

«ЎРТОҚ БОШЛИҚ» [э] – унда. қорин қўйиб олган эркакларга кинояли тарзда ишлатилади.

Мана, ўртоқ бошлиқнинг ўзлари келдилар (Сўзлашув нутқидан).

– Қ –

ҚАБРИСТОН ХОДИМИ [э] – *от.* Қабристонда гўр қазувчи киши; гўрков.

Қоратой чолни уйда қолдириб, Ўроз билан бирга мазорга, қабристон ходимига жўнади (Ойбек, Танланган асарлар).

ҚАНД СЎРМОҚ [э] – *фл.* Ўпмоқ, бўса олмоқ.

Чунки бу тил лабларингдан Тўти янглиғ сўрди қанд (Э.Воҳидов).

ҚИЗ [а] – 1. *от.* Балоғат ёшига етмаган аёл. Қиз бола. Ёш қиз. Ўқувчи қиз.

2. *от.* Балоғатга етган, аммо ҳали эрга тегмаган аёл; маъсума, бокира.

– *Қизми, жувонми, Гулнорми – барибир, ман дадамнинг ёш хотин олишини хоҳламайман, – деди Салим (Ойбек, Қутлуғ қон).*

Ўзингикидан қиз олма демишлари ҳаққаст чин бўлди (Т.Мурод, Отамдан қолган далалар).

ҚИЗЛИГИДАН ЖУДО ҚИЛМОҚ [э] – *фл.* Зўрламоқ. Қиз боланинг номусига тегмоқ; тажовуз қилмоқ.

Алдагани, қизлигидан жудо қилгани етмагандай, энди умрига ҳам нуқта қўймоқчи. Шу инсофданми? (Газетадан)

ҚОНУННИ ЧЕТЛАБ ЎТМОҚ [б] – *фл.* Бўйсунмаслик, итоат этмаслик.

Начора, отанинг ҳукми вожиб, унинг иродасига бўйсунмай иложинг йўқ (С.Сиёев, Отлиқ аёл).

Баъзида қонунни четлаб ўтадиган кимсалар ҳам топилади (Постда, 2004 й. 14 апрель).

ҚОТМАДАН КЕЛГАН [б] – *сфт.* Териси суягига ёпишган; озғин, ориқ. Рамақижон.

Салтонбу ғаму ғуссадан, муҳтожлик ва доимий очликдан сўлишиб кетган қотма юзини чўзғиловчи кулгидан ўзини тутолмай кулар эди (М.Исмойлий, Фарғона тонг отгунча).

... беқасам тўннинг олди очилиб... қотма танаси кўриниб турар эди (Н.Аминов, Қаҳқаҳа).

Улар жуда қотма ҳам, тўлача ҳам бўлмасликлари, кейин юришлари ҳам бинойидек бўлиши лозим (Оила даврасида, 2014 й. 14 март).

ҚОҚИЛГАН АЁЛ [а] – *сф.т.* Янглишган, хато қилган; шу тарзда панд еган, ночор ҳолатга тушган хотин.

Бу унинг иккинчи марта қоқилиши. Олдинги сафар танбеҳлар-сизоқ бир оз эсини йиққан эди (Ш.Ғуломов, Бўз ер уйғонди).

Ҳозирча у қоқилмай, обрўсига путур етмай келяпти (Ф.Мусажа-нов, Ҳиммат).

ҚУРБОН БЎЛГАН [б] – *фл.* Бирор сабаб туфайли унинг йўлида ҳаётдан кўз юммоқ, ўлмоқ.

Халқ жиноятчи бўлиши мумкин эмас, қурбон бўлиши мумкин (Газетадан).

ҚЎШМАЧИ [а] – *от.* Бегона аёл билан бегона киши (эркак) нинг учрашувига, қўшилиувига воситачилик қилиб кун кўрадиган одам; далла.

Мен ҳали келиб-келиб одамгарчиликни, диёнатни, номусни туп-роқ билан тенг қилган сиздай разил, хотинфуруш қўшмачилар олдида шундай паст тушдимми?! (Ҳамза, Бой ила хизматчи)

Кўп қатори, ҳалол меҳнат билан кун кечириб ўрнига бу «хоним» қўшмачиликни «касб» қилиб олганига нима дейсиз?! (Бухоронома, 2013 й. 23 февраль)

ҚЎШМОҚ [б] – *фл.* Бирор эркак ва хотин-қизни бирлаштириш, эр-хотин қилмоқ.

Қўшиллар шу Ваҳобжонни қўшиб қўйсак, ўзидан тинчиб кетар-миди дейишади (С.Аҳмад, Тоғ афсонаси).

Бу иккала ёшни қўшиб қўймоқ биз, ота-оналар, зиммасида (Сўз-лашув нутқидан).

– F –

ҒУНЧА [а] – *от.* Қиз бола, иффатли, қўл тегмаган.

У мисоли ғунча, қўнглидан ўтказди йигит (Ёш куч, 1999. №6).

ҒУНЧАСИНИ ОЧМОҚ [а] – *фл.* Қизлигини олмоқ, номусига тег-моқ.

Умархон қизнинг ғунчаларини очиб, ҳар томонга ёйган эди (Те-мурнома).

– X –

ҲАЁТ ДАРВОЗАСИ (ЭШИГИ) [а] – *от.* Аёлларда жинсий алоқа органи, туғиш жараёнига бевосита алоқадор бўлган аъзо. Аврат.

Ҳаёт дарвозаси орқали дунё юзини кўрамиз (Саодат, 2009. №6).

ҲАҚИҚАТДАН УЗОҚЛАШМОҚ [б] – *фл.* Ўйламасдан, нима деётганини тушунмасдан гапирмоқ; хато қилиш, нотўғри гапирмоқ.

Ҳақиқатдан узоқлашма, бола, – деди отам (Сўзлашув нутқидан)

ҲАММОЛ [э] – *от.* Юк ташиш, ортиш, тушириш билан шуғулланувчи қора ишчи. Хизматкор.

Ҳаммоллик қилай десам, аввалгидек қоплаб ғалла, қоплаб сабзишолғом оладиган бадавлатнинг тухуми қуриган (Ғ.Ғулом, Менинг ўғригина болам).

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1 – 5-жилдлар. – Тошкент: ЎзМЭ, 2002 – 2007.
2. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 408 б.
3. Омонтурдиев А. Бир сўз луғати. – Термиз: Бойсун, 1996. – 46 б.
4. Омонтурдиев А. Ўзбек тилининг қисқача эвфемик луғати. – Тошкент: Фан, 2006. – 232 б.
5. Holder R. W. How Not To Say What You Mean. A Dictionary of Euphemisms. – Oxford, 2002. – 502 p.
6. Словарь гендерных терминов / Под. ред. А.А.Денисовой. – М.: Информация 21 век, 2002. – 78 с.

SHAHNOZA GULYAMOVA

**O'ZBEK TILI
GENDER XOSLANGAN
EVFEMIZMLARINING
QISQACHA
IZOHLI LUG'ATI**

*Bobom – professor
G'ULOMOV ASKAR QODIROVICHning
yorqin xotirasiga bag'ishlayman.*

SO'ZBOSHI

Inson har bir davraga, avvalo, so'zi bilan kirib boradi. Kishilarning ma'naviy saviyasi, odob-axloqi, madaniyatlilik darajasi, oliyjanobliligi, umuman, ichki dunyosining qanchalik boy ekanligi, avvalo, uning nutqidan ma'lum bo'ladi. So'zlovchiga xos ijobiy yoki salbiy fe'l-atvor ham ularning nutqida muayyan til vositalari asosida yuzaga chiqadi. Xalqimizning «Yaxshi topib gapirar, yomon – qopib» degan maqoli zamirida ham nutq egasiga xos fe'l-atvorning ijobiy yoki salbiy jihatiga ishora sezilib turadi. Ba'zan juda orasta kiyingan, yurish-turishi o'ziga yarashgan kishilar bilan, ba'zan biz uchun «yulduz» darajasida bo'lganlar bilan ozgina suhbatlashsak, qaytib bu suhbatni orzu qilmasligimiz ham mumkin. Yoki aksincha.

Tilda goh «yumshoq sinonimlar», goh «yumshoq variantlar» deb yuritiluvchi evfemizmlar nutqni ta'sirchan va yoqimli qiladi. Nutq jarayonida axloq-odob hamda hissiy talablar ta'sirida aytilishi nojoiz, noqulay bo'lgan so'zlarning yumshoq va muloyim ifodasi bo'lgan ikkilamchi nomlar, ya'ni evfemizmlar tilda alohida bir tizimni tashkil qiladi. Masalan, Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» asarida Kumushbibi maktubida shunday o'rin bor: «Sizni va otamni juda sog'indim, agar-da og'iroyoq bo'lmasam edi, qish bo'lishiga qaramasdan, Marg'ilonga jo'nar edim, qudangiz, qayin onamning so'z(lar)iga qaraganda, kelasi oyda ko'zim yorir emish».

Maktubdagi homiladorlik bilan bog'liq ma'nolarni aks ettirgan «og'iroyoq», «ko'zi yorimoq» kabi evfemizmlar xalqimizning milliy ruhi, odobi, nazokatini aks ettirgan til birliklaridir.

Yoki Tog'ay Murodning «Yulduzlar mangu yonadi» qissasiga e'tibor beraylik. Asarda faqat kurashchilar nutqiga xos bo'lgan evfemizmlardan tashqari «xotin olmoq» birligi o'rnida «begona qilmaslik» (*Bo'ri polvon Suluvni begona qilmadi*) (64-bet) yoki bugungi kunda ko'pchilikning nutqida uyat, noqulay sezilmaydigan «sevmoq» lug'aviy birligi o'rnida «ko'z ostiga olmoq» (*Bo'ri polvon ana shu qizni ko'z ostiga oldi*), «ko'ngliga o'tirmoq» (*Suluv Bo'ri polvon ko'ngliga o'tirib qoldi*) kabi-lar ishlatiladiki, bu tilimizning jozibadorligi yozuvchi mahoratiga asos bo'lganligidan dalolat.

Evfemizmlar orqali, asosan, inson ruhiyati, o'zaro munosabati, bir-biriga bo'lgan e'zozi, hurmati, takallufi aks etadi. Tom ma'noda, evfemizmlarni o'rinni qo'llash nutqni madaniylashtiradi, so'zlovchini ham, tinglovchini ham noqulaylikdan qutqaradi. Shuning uchun ulardan foydalanishda ehtiyotkorlik talab etiladi.

Evfemizmlar jahon tilshunosligida ham, uning bir bo'lagi bo'lmish o'zbek tilshunosligida ham atroflicha o'rganilgan mavzulardan biri bo'lishiga qaramay, u hamon tadqiqotchilar e'tiborini o'ziga tortib kelmoqda. O'zbek nutqida qo'llaniladigan evfemizmlarni gender xoslik nuqtayi nazaridan o'rganish va uning lug'atini yaratishga bo'lgan urinishlar shular jumlasidan.

O'zbek evfemizmlari lug'atchiligi borasida ilk dadil qadamni tilshunos olim A.J.Omonturdiyev tashlaganligini e'tirof etish zarur.⁷ Mazkur lug'atda o'ttizdan ortiq mavzu asos sifatida tanlanib, shu mavzular evfemik qurshovini tashkil etuvchi birliklar tadrijiy ketma-ketlikda joylashtirilgan. Jumladan, asarda «o'lmoq» tushunchasining besh yuzga yaqin, «tug'moq» tushunchasining o'ttizdan ortiq evfemik variantlari ifodalangan. Alifbo tartibida berilgan evfemik birliklarning har biriga badiiy asarlardan, og'zaki so'zlashuv nutqidan tegishli misollar keltirilgan.

«O'zbek tili gender xoslangan evfemizmlarining qisqacha izohli lug'ati» evfemikshunos olim A.J.Omonturdiyev tomonidan tuzilgan «O'zbek tilining qisqacha evfemik lug'ati»ning mantiqiy davomi bo'lib, o'ylaymizki, bu boradagi ishlarni to'ldirishga, mukammallashtirishga ko'maklashadi.

⁷ Омонтурдиев А.Ж. Ўзбек тилининг қисқача эвфемик луғати. – Тошкент: Фан, 2006. – 134 б.

Ta'kidlash joizki, zamonaviy tilshunoslikning yangi paradigmasi hisoblanmish gender lingvistikasi jamiyat a'zolari uchun umumiy bo'lgan lisoniy tizim foydalanuvchilariga jins nuqtayi nazardan yondashadi va ayollar hamda erkaklar nutqidagi xushxulqlik muammolari, ularning o'xshash va farqli tomonlarini tadqiq etadi. Bu borada jahon tilshunosligida A.P.Martinyuk, R.Lakoff, Dj.Koast, E.A.Zemskaya⁸ kabi bir qator tilshunoslarning izlanishlari diqqatga sazovor bo'lib, biz mazkur lug'atni tuzishda ularning fikr-mulohazalariga ham tayandik.

Shuningdek, ushbu lug'atni yaratishda xushxulqlik nafaqat ayollar, balki erkaklar nutqi uchun ham o'ta muhim omil ekanligiga, til birliklaridan o'z o'rnida o'rinli va samarali foydalanish har bir til egasi uchun zarurligiga e'tibor qaratdik. O'zbek nutqida xushxulqlik prinsipi nuqtayi nazaridan gender evfemizmlarini quyidagicha guruhlar asosida joylashtirishga harakat qildik:

1. Ifodalash noqulay bo'lgan tushunchalarni suhbatdoshning ko'ngliga tegmaydigan birliklar orqali qo'llash (ayollar va erkaklar nutqida).

Jamiyatda o'zini hamda o'zgalarni hurmat qilgan erkak ham, ayol ham, odatda, madaniyatli so'zlashga intiladi. Ko'p hollarda evfemizmlar bu ikki jins vakillari tilida birday faol qo'llaniladi.

2. Turli jismoniy kamchiliklarni ifodalovchi gender evfemizmlar. Bu guruh gender evfemizmlariga erkak va ayollarga birday tegishli bo'lgan «ko'zidan ayrilmoq» (ko'r bo'lmoq), «ko'zi ojiz» (ko'r), «nogiron» (cho'loq, shol va b.), shuningdek, erkaklarning nuqsonini ifodalovchi «bepusht», «bezurriyot», «kechaligi yo'q», «jismoniy kamchilikli» (hezalak)⁹ kabilar kiradi.

3. Ayollarning va erkaklarning tashqi ko'rinishini ifodalovchi evfemizmlar. Mazkur guruhda ayollarga tegishli evfemizmlar ko'p uchraydi. Sababi, ayollar o'z tashqi qiyofasi, qaddi-qomatiga ko'p e'tiborli. Qayd etish kerakki, «ortiqcha vazn», «to'lalilik» kabi muammolar mazkur evfemizmlarning vujudga kelishiga sabab bo'lgan.¹⁰

⁸ Земская Е. А., Китайгородская М. А., Розанова Н. Н. Особенности мужской и женской речи // Русский язык в его функционировании / Под ред. Е.А.Земской и Д.Н.Шмелева. - М., 1993. - С.90 - 136.

⁹ Омонтурдиев А. Ўзбек тилининг қисқача эвфемик луғати. - Тошкент: Фан, 2006. - Б.46.

¹⁰ Вильданова Г.А. Эвфемизм как средство реализации гендерной вежливости в современном английском языке / <https://cyberleninka.ru>

4. Ayollarning va erkaklarning axloqiy, emotsional va intellektual sifatlarini anglatadigan evfemizmlar. Bunday evfemizmlar ham tilimizda sermahsul hisoblanadi. Masalan, «qiz»ni «bahorni ko'rmagan chechak», «ochilmagan g'uncha», «nodir buyum» evfemizmlari, «qiz emas» tushunchasini «hidlangan gul», «iffati olingan», «it tekkan»¹¹ kabi o'ndan ortiq evfemik birliklar orqali ifodalash mumkin.

Ma'lumki, har bir insonda, u xoh ayol, xoh erkak bo'lsin, o'ziga xos jismoniy, emotsional va axloqiy sifatlar bor. Bu xususiyatlarning ko'pchiligini ochiq ifodalash nutqiy etiketga to'g'ri kelmasligi mumkin. Shu sababdan, yuqorida ko'rib o'tganimizdek, ularning nomini yumshatuvchi birliklar bilan almashtirib qo'llash zarurati tug'iladi.

5. Ayollar va erkaklar jismoniy holatini (yoshini) bildiradigan evfemizmlar. Masalan, nutqimizda «og'iroyoq», «bo'yida bo'lmoq», «ikkiqat», «boshqorong'i», «yukli» [bo'g'oz]; «oyog'i to'rtta bo'lmoq», «boshini ikki qilmoq», «ola xurjun bo'yniga tushmoq», «va'daga vafq qilmoq» (xotin olmoq) kabi bir qator evfemizmlarga tez-tez murojaat qilamiz.

Demak, ayollarga oid efemizmlar shaxsiy va shaxslararo munosabatlar sohasiga ham tegishli hisoblanadi. Chunki u ijtimoiy soha bilan bog'liq bo'lib, ayollarning jamiyatdagi kasbiy faoliyatini ham nazarda tutadi.¹² «Maskulin» sifatlar bilan to'ldirilgan an'anaviy «feministik» obrazlar ba'zida turli zid «ayollar» evfemizmlarida o'z aksini topadi. Gender evfemizmlarida metaforizatsiya, perifraza va so'z o'yinlari asosiy mexanizm sanaladi.

• Xullas, lug'atimizda o'zbek tilida gender xoslangan va gender farqqa ega bo'lmagan evfemizmlarni guruhlab, ularning izohini keltirdik. Badiiy asarlardan, matbuot materiallari va so'zlashuv nutqidan olingan misollar asosida izohlab, manbasini ko'rsatdik.

• Lug'atda dastlab evfemizm va uning gender xoslangan-xoslanmaganligi ko'rsatilgan bo'lib, so'ng uning asl varianti, ya'ni ochiq shakli izohlab keltirilgan.

Lug'atdagi so'zlar alifbo tartibida joylashtirilgan bo'lib, erkak jinsiga xoslangan evfemizmlar [e] – erkak, ayol jinsiga xoslangan evfemizmlar

¹¹ Омонтурдиев А. Ўзбек тилининг қисқача эфемия лугати. - Тошкент: Фан, 2008. - Б.18.

¹² Вильданова Г.А. Эвфемизм как средство реализации гендерной идентичности в современном английском языке / <https://cyberleninka.ru>

[a] – ayol, gender farqqa ega bo'lmaganlari esa [b] – betaraf kabi shartli belgilar orqali ifodalangan. Masalan:

BOKIRA [a] – *sft.* Sof, toza; erkak qo'li tegmagan. Er ko'rmagan, turmushga chiqmagan qiz. Iffatli qiz. Nomusli qiz. Erkak nafasidan yiroq.

Hech qayoqqa ketmayman, menga osilmang, bo'lmasa, bir bokira jonning uvoliga qolasiz! (K.Yashin, Hamza)

Senga shunday bokira jononlarni topib berayki, husnini ko'rib, aqling og'masa – hisobmas (J.Abdullaxonov, To'fon).

O'zining bokira ekanligini ta'kidlagan qiz farzand dunyoga keltirdi (Saodat, 2006. №4).

NAFSINI QONDIRMOQ [e] – *fl.* Shahvoniy hirs.

Bunday o'z nafslarini qondirmoqchi bo'lgan zotlar bironing halol xotiniga ko'z tikib, hayotda hech bo'lmagan yolg'on so'zlarni qilib, shirinigina bir turmushni buzmoqchi bo'ladilar (Hamza, Tuhmatchilar jazosi).

Boyvachchaning ko'zida har bir xotini uning nafs, hirs uchun yaratilgan chiroyli meva edi (Oybek, Tanlangan asarlar).

Kuyov nafsini qondirgach, bir piyola sharob ichdi-yu mast uyquga ketdi (T.Malik, Nomus).

BEPUSHT [b] – *sft.* Bola ko'rmagan, naslsiz, befarzand, bolasiz.

Shodi Mudarrisovichning otasi eski jo'valik Gulposhsha degan tanno bir bepusht juvonga o'ralashib yurdi (D.Nuriy, Osmon ustuni).

Lug'atda erkak va ayollarning axloqi, tabiati, tashqi ko'rinishi, fiziologik holati bilan bog'liq bo'lgan, shuningdek, ularning nutqida farqli tarzda uchraydigan, har ikki jinsda umumiy qo'llanadigan evfemik birliklar bilan bog'liq misollar jamlandi.

Hukmingizga havola etilayotgan «O'zbek tili gender xoslangan evfemizmlarining qisqacha izohli lug'ati» bu boradagi ilk qadam, shu bois uni kamchiliklardan xoli degan fikrdan yiroqmiz. Lug'at va uni mukammallashtirish borasidagi fikr-mulohazalar muallif tomonidan mamnu-niyat bilan qabul qilinadi.

ALIFBO

Aa Bb Dd Ee Ff Gg Hh

Ii Jj Kk Ll Mm Nn Oo

Pp Qq Rr Ss Tt Uu Vv

Xx Yy Zz O'o' G'g' Shsh

Chch ng

– A –

AJAL OG'ZI [b] – ot. O'lim payti, qazo vaqti; o'lim.

Jigarbandiga «rizqing uzilmasin, bolajonim» degan xavotir-hadikda non tishlatgan mushtipar onalar farzandini armiyaga emas, ajal og'ziga jo'natayotganday jon hovuchlab qolardi (Xalq so'zi, 2013-y. 30 yanvar).

AQL-HUSHINI YO'QOTMOQ [b] – sft. To'g'ri fikr-mulohaza yuritish, to'g'ri idrok etish holatini yo'qotmoq, es-hushini yo'qotmoq.

«Yaxshi ko'rganda qizlar aqlini yo'qotib qo'yadi», – deyshadi (P.Qodirov, Uch ildiz).

ASR VABOSI [b] – ot. O'ta og'ir, davosi topilmagan OITS kasaliga yetaklovchi VICH virusi.

Yildan yilga asr vabosi kasalligiga chalinayotganlar soni ortib borishi xavotirli hol, albatta (Buxoronoma, 2011-y. iyun).

AYBI BOR [b] – sft. Jismoniy jihatdan kamchiligi, nuqsoni, illati bor; aybli.

Aybi bor uchun uylanmay yurgandir-da (So'zlashuv nutqidan).

AYOL [a] – ot. 1. Umuman, erkakka qarama-qarshi jinsdagi shaxs; xotin. Bu ma'noda, asosan, ko'plik shaklida qo'llanilib, umumlashtirish ma'nosiga ega bo'ladi, «xotin-qizlar» ma'nosini bildiradi.

Oriyatli bo'lganidan, odamlar yuziga tik qaragani uyaldimi, kim bilsin, bu ayolning vujudida o'n erkakning or-nomusi bor edi (T.Ashurov, Oq ot).

Sharq ayollari, shu jumladan, o'zbek ayollarining ta'rifi olam ahlini hayratga solib kelayotgani sir emas (Gazetadan).

2. Xotin, rafiqa (erga nisbatan).

Ahmad brigadirning yuragiga g'ulg'ula tushdi, sergak tortib, ayoliga qaradi (S.Nurov, Narvon).

Ayolim qishin-yozin ichkari hovlining yumushini qiladi: kir yuvadi, uy-joyini supuradi, non yopadi, ko'rpa qaviydi (Oybek, Tanlangan asarlar).

Uyda ayolimizga bor gapni aytib berdim. Ayolimiz oldin ishonmadi (T.Murod, Otamdan qolgan dalalar).

– B –

BALOG'ATGA YETMOQ [a] – fl. Yetilmoq, voyaga yetish, bo'yiga yetish; yetuklik. Jismoniy jihatdan yetilganlik. *Balog'at yoshi. Balog'atga yetmoq.*

Qiziq, balog'atga yetgan qiz muhabbatni emas, muhabbatning o'zi uni izlab topadi deganlari rost ekan (O'.Hoshimov, Bahor qaytmaydi).

Naziraning harir ko'yilagi badanlariga yopishib, uning balog'at tarovati yog'ilib turgan bor qomatini ko'z-ko'z etardi (D.Nuriy, Osmon ustuni).

BEGIM [e] – ot. Er. Oilaviy munosabatlarda xotinning eriga bo'lgan murojaat shakli hisoblanadi. *Bek* so'ziga I shaxs, birlikdagi egalik qo'shimchasi *-im* qo'shilib, *begim* shakliga kirgan.

Erni «begim» deb atash ma'qul emasmi? (Oila davrasida, 2013-y. 14-mart)

BEKAM [a] – ot. 1. Xotin. Er xotinga qo'llaydigan murojaat shakli.

2. Oilaga, xonadonga yoki xo'jalikka boshchilik qiluvchi ayol. *Bog'bonsiz bog' misli cho'l-yobon, Bekasiz uy – suvsiz tegirmon (Qanotli so'zlar).*

To'y bekasi – Mirzakarimboyning xotini ayollarni uch guruhga ayirgan edi (Oybek, Tanlangan asarlar).

Yarim kechada qayoqqa boramiz, o'zingiz o'ylang! – dedi kuyov mehmonxona bekasiga (S.Anorboyev, Oqsoy).

Xo'sh, unda er va xotin bir-birini qanday chaqirgani ma'qul? «Begim», «bekam» kabi chiroyli so'zlarimiz bor-ku! (Oila davrasida, 2013-y. 14-mart).

BELDAN PAST [a] – ot. Ayollarning uyatli a'zosi; avrat.

U beldan pastini silkitib o'ynaganda arab ayollari ham chetga chiqib qolishdi (Said Ahmad, Jimjitlik).

BELIDAN QUVVAT, KO'ZIDAN NUR KETGAN [b] – sft. Ancha yoshga borgan, qartaygan; keksa.

Oyoqlari og'rib, belidan quvvat, ko'zidan nur ketganida hassa olib bergan... bu – bizlarmiz. (Oila davrasida, 2015-y. 18-mart)

BEPUSHT [b] – sft. Bola ko'rmagan, naslsiz, befarzand, bolasiz; bezurriyot.

Shodi Mudarrisovichning otasi eski jo'valik Gulposhsha degan tannoz bir bepusht juvonga o'ralashib yurdi (D.Nuriy, Osmon ustuni).

BEVA [b] – sft. Eri o'lgan yoki taloq qilingan xotin; eri yoki xotini o'lgan va boshqa turmush qilmagan; tul; qoqboosh. *Beva chol. Beva xotin.*

Nomardning xotini bo'lguncha mardning bevasi bo'lgan yaxshi (Maqol).

Domla bundan uch yil burun beva qolib, unga goh singlisi, goh uzatgan qizi qarab yurar edi (A.Qahhor, To'yda aza).

– A –

AJAL OG'ZI [b] – *ot.* O'lim payti, qazo vaqti; o'lim.

Jigarbandiga «rizqing uzilmasin, bolajonim» degan xavotir-hadikda non tishlatgan mushtipar onalar farzandini armiyaga emas, ajal og'ziga jo'natayotganday jon hovuchlab qolardi (Xalq so'zi, 2013-y. 30 yanvar).

AQL-HUSHINI YO'QOTMOQ [b] – *sft.* To'g'ri fikr-mulohaza yuritish, to'g'ri idrok etish holatini yo'qotmoq, es-hushini yo'qotmoq.

«Yaxshi ko'rganda qizlar aqlini yo'qotib qo'yadi», – deyshadi (P.Qodirov, Uch ildiz).

ASR VABOSI [b] – *ot.* O'ta og'ir, davosi topilmagan OITS kasaliga yetaklovchi VICH virusi.

Yildan yilga asr vabosi kasalligiga chalinayotganlar soni ortib borishi xavotirli hol, albatta (Buxoronoma, 2011-y. iyun).

AYBI BOR [b] – *sft.* Jismoniy jihatdan kamchiligi, nuqsoni, illati bor; aybli.

Aybi bor uchun uylanmay yurgandir-da (So'zlashuv nutqidan).

AYOL [a] – *ot.* 1. Umuman, erkakka qarama-qarshi jinsdagi shaxs; xotin. Bu ma'noda, asosan, ko'plik shaklida qo'llanilib, umumlashtirish ma'nosiga ega bo'ladi, «xotin-qizlar» ma'nosini bildiradi.

Oriyatli bo'lganidan, odamlar yuziga tik qaragani uyaldimi, kim bilsin, bu ayolning vujudida o'n erkakning or-nomusi bor edi (T.Ashurov, Oq ot).

Sharq ayollari, shu jumladan, o'zbek ayollarining ta'rifi olam ahlini hayratga solib kelayotgani sir emas (Gazetadan).

2. Xotin, rafiqa (erga nisbatan).

Ahmad brigadirning yuragiga g'ulg'ula tushdi, sergak tortib, ayoliga qaradi (S.Nurov, Narvon).

Ayolim qishin-yozin ichkari hovlining yumushini qiladi: kir yuvadi, uy-joyni supuradi, non yopadi, ko'rpa qaviydi (Oybek, Tanlangan asarlar).

Uyda ayolimizga bor gapni aytib berdim. Ayolimiz oldin ishonmadi (T.Murod, Otamdan qolgan dalalar).

– B –

BALOG'ATGA YETMOQ [a] – *fl.* Yetilmoq, voyaga yetish, bo'yiga yetish; yetuklik. Jismoniy jihatdan yetilganlik. *Balog'at yoshi. Balog'atga yetmoq.*

Qiziq, balog'atga yetgan qiz muhabbatni emas, muhabbatning o'zi uni izlab topadi deganlari rost ekan (O'.Hoshimov, Bahor qaytmaydi).

Naziraning harir ko'ylagi badanlariga yopishib, uning balog'at tarovati yog'ilib turgan bor qomatini ko'z-ko'z etardi (D.Nuriy, Osmon ustuni).

BEGIM [e] – ot. Er. Oilaviy munosabatlarda xotinning eriga bo'lgan murojaat shakli hisoblanadi. *Bek* so'ziga I shaxs, birlikdagi egalik qo'shimchasi -im qo'shilib, *begim* shakliga kirgan.

Erni «begim» deb atash ma'qul emasmi? (Oila davrasida, 2013-y. 14-mart)

BEKAM [a] – ot. 1. Xotin. Er xotinga qo'llaydigan murojaat shakli.

2. Oilaga, xonadonga yoki xo'jalikka boshchilik qiluvchi ayol. *Bog'bonsiz bog'* misli *cho'l-yobon*, *Bekasiz uy – suvsiz tegirmon* (Qanotli so'zlar).

To'y bekasi – Mirzakarimboyning xotini ayollarni uch guruhga ayirgan edi (Oybek, Tanlangan asarlar).

Yarim kechada qayoqqa boramiz, o'zingiz o'ylang! – dedi kuyov mehmonxona bekasiga (S.Anorboyev, Oqsoy).

Xo'sh, unda er va xotin bir-birini qanday chaqirgani ma'qul? «Begim», «bekam» kabi chiroyli so'zlarimiz bor-ku! (Oila davrasida, 2013-y. 14-mart).

BELDAN PAST [a] – ot. Ayollarning uyatli a'zosi; avrat.

U beldan pastini silkitib o'ynaganda arab ayollari ham chetga chiqib qolishdi (Said Ahmad, Jimjitlik).

BELIDAN QUVVAT, KO'ZIDAN NUR KETGAN [b] – sft. Ancha yoshga borgan, qartaygan; keksa.

Oyoqlari og'rib, belidan quvvat, ko'zidan nur ketganida hassa olib bergan... bu – bizlarmiz. (Oila davrasida, 2015-y. 18-mart)

BEPUSHT [b] – sft. Bola ko'rmagan, naslsiz, befarzand, bolasiz; bezurriyot.

Shodi Mudarrisovichning otasi eski jo'valik Gulposhsha degan tannoz bir bepusht juvonga o'ralashib yurdi (D.Nuriy, Osmon ustuni).

BEVA [b] – sft. Eri o'lgan yoki taloq qilingan xotin; eri yoki xotini o'lgan va boshqa turmush qilmagan; tul; qoqbosh. *Beva chol. Beva xotin.*

Nomardning xotini bo'lguncha mardning bevasi bo'lgan yaxshi (Maqol).

Domla bundan uch yil burun beva qolib, unga goh singlisi, goh uzatgan qizi qarab yurar edi (A.Qahhor, To'yda aza).

Balki, qarshingizda kelgandir munis, Beva kelinchakning so'nik ruxsori (A.Oripov).

BEZURRIYOT [b] – *sft.* Farzandi yo'q; nasl-nasabi qolmagan; bepusht.

Boboyor kessin yolg'iz boshingni. Dunyodan bezurriyot o'tgin, Go'ro'g'li (Ergash Jumanbulbul o'g'li).

Bu dunyodan bezurriyot o'tishdan Ollohning o'zi asrasin (So'zlashuv nutqidan).

BITTAGA QANOAT QILMASLIK [e] – *sft.* Xotinboz, buzuq, ko'p xotinlar bilan aysh-ishrat qiladigan axloqsiz erkak.

Bittaga qanoat qilmaslik shaytoniy hirsdir, bolam (Gazetadan).

BOKIRA [a] – *sft.* Sof, toza; erkak qo'li tegmagan. Er ko'rmagan, turmushga chiqmagan qiz. Iffatli qiz. Nomusli qiz. Erkak nafasidan yiroq.

Hech qayoqqa ketmayman, menga osilmang, bo'lmasa, bir bokira jonning uvoliga qolasiz! (K.Yashin, Hamza)

Senga shunday bokira jononlarni topib berayki, husnini ko'rib, aqling og'masa – hisobmas (J.Abdullaxonov, To'fon).

O'zining bokira ekanligini ta'kidlagan qiz farzand dunyoga keltirdi (Saodat, 2006. №4).

BOKIRALIGINI O'G'IRLAMOQ [a] – *fl.* Qo'l tegmagan, er ko'rmagan, turmushga chiqmagan iffatli qizni zo'rlamoq, qizligini olmoq. Nomusini to'kmoq. Qizning to'shagini bosmoq.

Qizning bokiraligi o'g'irlangan ekan (Saodat, 1998. №10).

BOLA KO'RMASLIK [b] – *sft.* Tug'mas ayol va bepusht erkaklarga nisbatan qo'llaniladi.

Bola ko'rmagan xotini bilan yashashdan bezib yurgan er taloqni hayallatmadi (T.Malik, Nomus).

BOSHINI IKKI QILMOQ [e] – *fl.* Uylantirib qo'yimoq, xotin olib bermoq.

– Biz ham orzu-havas ko'rmay o'tmasak: ko'zimizning ochiqligida boshingni ikkita qilib qo'ysak deymiz-da, o'g'lim, – dedi chol (M.Ismoiliy, Farg'ona tong otguncha).

Yigitning boshi ikki bo'lmaguncha moli ikki bo'lmaydi (S.Ahmad, Qadrdon dalalar).

Ha, aylanay, o'zim tirikligimda bolaginamning boshini ikkita qilib qo'yay dedim (S.Zunnunova, Birinchi qadam).

BOSHI OCHIQ (BO'SH) [a] – *sft.* Ersiz yoki eridan ajralgan xotin.

Endi u [Munavvar] boshi ochiq qiz bola emas. Oilali (S.Anorboyev, Mehr).

Bugundan boshing ochiq. Uch taloq qo'ydim (Yoshlik).

O'zbeklarning yaxshi qizi bor bo'lsa, Boshi bo'shmi deyin, avval so'ra-yin (Alpomish).

«Boshingiz ochiqmi?» – u gapning dangaliga ko'chib qo'ya qoladi. «Yaxshi bir yigit bor, nima deysiz?» Qiz javob berishni ham ep ko'rmay, boshi bilan yo'q ishorasini bergancha bizdan uzoqlashadi (So'zlashuv nutqidan).

Boshi ochiq ayolga qachon nikohlansa bo'lishini Alloh belgilab qo'ygan, bandaning istagi bilan bo'lmaydi (T.Malik, Nomus).

BOSHI YOSTIQQA TEGMOQ [b] – fl. Kasal bo'lib yotib qolmoq, betob bo'lmoq. Xastalanmoq.

Kim qanday, boshing yostiqa tekkanda bilinar ekan (S.Abdulla).

Ishqilib, baraka topsin doktorlar, boshing yostiqa tekkanda joningga ora kirishadi (H.Nazir, Oltin qadah).

Boshi yostiqa tekkachgina sog'lig'ining qadriga yetadigan, xastalikni yengish haqida o'ylay boshlaydiganlar oramizda yo'q deya olmaymiz-da, axir (Xalq so'zi, 2013-y. 9-yanvar).

BOSHQORONG'I [a] – sft. Ba'zi ayollarda homilador (bo'g'oz; ikkiqat)likning dastlabki oylarida bo'ladigan holat, ahvol (mas., biror narsani tusash yoki unga toqat qilolmaslik).

Uning anorga boshi qorong'i (A.Qahhor, Anor).

Boshi qorong'iga – olam qorong'i (Maqol).

Uning ittifoqo «Coca-cola»ga boshi qorong'i bo'lib qoldi (Mirmuhsin, Hikoyalar va qissalar).

BO'SA CHAQNAMOQ [b] – fl. O'pishish, muchchilashish. Mehr, muhabbat, erkalash, o'ta hurmat izhori sifatida, ba'zan hirs bilan labni, odatda, qarama-qarshi jins vakili dudog'iga qattiq bosish; o'pishish.

Sevishganlar qo'li bir-biriga chirmashdi. Dudoqlarda bo'sa chaqnadi (Shuhrat, Shinelli yillar).

BO'YIDA BO'LMOQ [a] – fl. Homilador (bo'g'oz; ikkiqat) bo'lmoq. Qornida homilasi bor holat; urug'langan tuxum hujayraning ona organizmida rivojlanib, yetuk homilaga aylanishidan iborat fiziologik jara-yon.

– Sahro voqeasidan uch oy o'tganda bo'yimda bo'lib qolganiga ortiq gumonim qolmadi, – dedi Hojixol (M.Ismoiliy, Farg'ona tong ot-guncha).

Shu-shu qaytib bo'yida bo'lmadi. Bormagan doktori qolmadi (S.Siyoyev, O'tliq ayol).

Qizining bo'yida bo'lmayotgani Qunduz opani tashvishga solar, kechalari uyqularini olib qochardi (Gazetadan).

– D –

DAVOSIZ DARD [b] – *ot.* Hozirgi kunda o'ta og'ir, davosi topilmagan kasalliklar – rak, OITS kasaliga yetaklovchi VICH virusi.

Uning onasini davosiz dard olib ketgan (So'zlashuv nutqidan).

DAVOSIZ DARDGA UCHRAMOQ [b] – *fl.* Sevmoq, oshiqi beqaror bo'lmoq.

Nechuk aylay, birodarlar, bo'lubman dard ila hayron,

Davosiz dardga uchrabman, o'larman begumon emdi (Mashrab).

DUDOQLAR(I) LOLALANMOQ [b] – *fl.* Mehr, muhabbat, erkalash, o'ta hurmat izhori sifatidagi ahvol, o'pishishdan keyingi holat.

Ishq o'tidan lolalansin dudoqlar (Qo'shiqdan).

DUNYOGA KELTIRMOQ [a] – *fl.* Tug'moq. Bo'yida, qornida bo'lgan bolani oy-kuni yetgach dunyoga keltirmoq.

Xotini o'n yil mobaynida ikki qiz, bir o'g'ilni dunyoga keltirdi (Saodat, 2009. №6).

Mohirabonudan ikki o'g'il va ikki qiz dunyoga kelib, to'ng'ichi – Aziz-bek... to'rtinchisi bizning Zaynab edi (A.Qodiriy, O'tkan kunlar).

– E –

EGA [e] – *ot.* Erkak jinsiga mansub kishi; erkak. Oilaviy munosabatlarda er tushunchasi o'rnida qo'llaniladi.

Egasi yo'q ayolga qachon nikohlansa bo'lishini Alloh belgilab qo'yg'an, bandaning istagi bilan bo'lmaydi (T.Malik, Nomus).

EHTIYOJ JUDA KATTA BO'LGAN XIZMAT [a] – *ot.* Begona ayol bilan begona kishi (erkak)ning uchrashuviga, qo'shiluviga vositachilik qilib kun ko'radigan odam; dalla. Qo'shmachi.

Bu – mening ishim. Biz ehtiyoj juda katta bo'lgan xizmatni ko'rsatyapmiz. Ko'ngli nozik milliarderga erga tegmaysizmi? (Buxoronoma, 2013-y. 23-fevral)

– F –

FARZAND KUTMOQ [a] – fl. Homilador (bo'g'oz) bo'lmoq. Qornida homilasi bor bo'lmoq; ikkiqat bo'lmoq.

Farzand kutish ostonasida bo'lgan ayollar o'zlarini asrashlari, yaxshi yeb, xush kayfiyatda yurishlari lozim (Saodat, 2009. №2).

FIKR QARAMLIGI [b] – ot. Shaxsiy fikrga ega bo'lmaslik. Manqurtlik.

Fikr qaramligi, tafakkur qulligi es, har qanday iqtisodiy yoki siyosiy qaramlikdan ham ko'ra dahshatlidir (Tafakkur, 1998. №2).

– G –

GULINI SO'LDIRMOQ [e] – fl. Zo'rlamoq; majburlab qizligini olmoq, badnom qilmoq.

Endi gulingni alvasti chol so'ldiradi (R.Uzoqova, Saylanma).

GUL KESMOQ [b] – fl. Oshkora buzuqchilik qilmoq; fohishalik yoki fohishabozlik qilmoq.

Mahalla yaqin vaqt oralig'ida Naziraxondek gul kesganni ko'rgan emas edi (So'zlashuv nutqidan).

– H –

HAMMOL [e] – ot. Yuk tashish, ortish, tushirish bilan shug'ullanuvchi qora ishchi. Xizmatkor.

Hammollik qilay desam, avvalgidek qoplab g'alla, qoplab sabzi-sholg'om oladigan badavlatning tuxumi qurigan (G'G'ulom, Mening o'g'rigina bolam).

HAQIQATDAN UZOQLASHMOQ [b] – fl. O'ylamasdan, nima deytganini tushunmasdan gapirmoq; xato qilish, noto'g'ri gapirmoq.

Haqiqatdan uzoqlashma, bola, – dedi otam (So'zlashuv nutqidan)

HAYOT DARVOZASI (ESHIGI) [a] – ot. Ayollarda jinsiy aloqa organi, tug'ish jarayoniga bevosita aloqador bo'lgan a'zo. Avrat.

Hayot darvozasi orqali dunyo yuzini ko'ramiz (Saodat, 2009. №6).

IJTIMOYIY LARZA [b] – *sft.* Notinchlik, beboshlik harakati natijasida ro'y beradigan salbiy holat.

Albatta, necha yillar davomida hal etilmagan, xalqning sabr kosasini to'ldirgan bunday muammolar oxir-oqibatda ijtimoiy larzaga olib kelishi muqarrar edi (I.A.Karimov, O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida).

IKKIQAT [a] – *sft.* Bo'g'oz, homilador xotin. *Ikkiqat ayol.*

To'rtinchi bolasiga ikkiqat bo'lganda har xil yo'riqlar o'rgata boshladilar (Oydin, Hikoyalar).

ILONING YOG'INI YALAGAN [b] – *sft.* Juda ayyor, mug'ambir, quv, shum.

Ey, qanaqa go'l odamsan o'zing. Bektemirov ilonning yog'ini yalagan odam. Kaltak yeb, indamay ketaveradi deb o'ylaysanmi?! (S.Ahmad, Hukm)

IPSIZ BOG'LANMOQ (BEIP BOG'LANMOQ) [b] – *fl.* Ruhan bo'shay olmaydigan, qutula olmaydigan; his-tuyg'ulari bilan, odatda, qarshi jins vakiliga bandi holatga tushmoq. Ba'zan qarz yoki muayyan sir, yashirin, noqonuniy ish, holat bilan bog'liq tarzda boshqa kishining izmiga tushib qolmoq.

– Hokim bizni Teshaboyga ipsiz bog'lab berib ketdi, – dedi Quadrat (M.Ismoilij, Farg'ona tong otguncha).

Mana, bo'limga ipsiz bog'lanib o'tiribdi. Uy-joyiga qarolmaydi (S. Nurov, Narvon).

ISLOVOTXONA [b] – *ot.* Fohishalar faoliyat ko'rsatadigan, yashaydigan, kun kechiradigan joy, xona.

Islovotxonolari taraqqiy topgan mamlakatlarda adashgan qizlar, yo'ldan ozgan juvonlar ko'pincha Fuod afandi tutgan yo'llar bilan qo'lga tushiriladi (M.Ismoilij, Farg'ona tong otguncha).

Jinoyati ustida qo'lga tushgan ayol pokiza xonadonini islovotxonaga aylantirganini, allaqachon aqlini taniy boshlagan bolalari ko'zi o'ngida qanchalar noma'qulchiliklar qilayotganini mulohaza qilishga o'zimizning qancha qurbonlari bor? (Buxoronoma, 2013-y. 23-fevral)

ISHQI TUSHMOQ [b] – *fl.* Sevib qolmoq, yigitning qizga yoki qizning yigitga bo'lgan sevgisi; intim munosabat.

Ishqi tushgan yigit o'zini-da unutdi (Buxoronoma, 2013-y. 27-fevral).

– J –

JINSIY ALOQADAN MAHRUM [e] – *sft.* Hezalak, jinsiy ojiz, jinsiy aloqa qila olmaydigan erkak.

Sibir sovuqlarida qo'l-oyoqlaridan ayrilib, hatto jinsiy aloqa qilishdan mahrum bo'lib qolgan yigitlar... (Shukrullo, Kafansiz ko'milganlar)

JINSIY OJIZLIK [b] – *sft.* Erkakligi yoki ayolligi bo'lmagan shaxsda uchraydigan kasallik. Jinsiy aloqa qilolmaslik.

Jinsiy ojizlik o'ta nozik xastalikdir (So'zlashuv nutqidan).

JISMONAN ZAIF [b] – *sft.* Harakatlari cheklangan yoki falaj.

Mamlakatimizda jismonan zaif insonlarga beminnat moddiy va ma'naviy yordam beriladi (Buxoronoma, 2013-y. 27-fevral).

JISMONIY KAMCHILIK [e] – *sft.* Hezalak, jinsiy aloqadan mahrum.

Hayotda jismoniy kamchiliklarga ega bo'lgan kishilar bor (Buxoro oqshomi, 2015-y. 20-fevral).

JON BERMOQ [b] – *fl.* O'lmoq; vafot etmoq; yorug' dunyodan ketmoq; nafasdan to'xtamoq va h.k.

Vafot qildi jonkashim, dardkashim. Hozir qo'limda jon berdi (Oybek, Tanlangan asarlar).

Zanji xumda jon bergan yigitga o'xshamasdi (T.Malik, Nomus).

JONIDAN JON BUNYOD ETMOQ [a] – *fl.* Hayot hadya etmoq; dunyoga keltirmoq; tug'moq.

Biz – ayollar shifokorining o'zimiznikilardan tashqari ham doimiy bir yaqinimiz borki, bu – jonidan jon bunyod etadigan ayol (Saodat, 2009. №6).

JONON [a] – *ot.* Begona erkaklarning e'tiborini o'ziga jalb etadigan, o'ta kirishimli ayol. O'ynash; o'z chiroyi, ko'rinishi, qiliqlari bilan begona erkaklarning boshini aylantirib, ular bilan noqonuniy jinsiy aloqadan toymaydigan buzuq xotin.

Aksiga olib, endi motorni yurgizganda o'sha jonon oyoq ostidan chiqib qoldi (O'Hoshimov, Nur borki, soya bor).

JUFTIGA MAYLI QOLMAGAN [e] – *sft.* Qarigan; jinsiy aloqaga layoqatsiz kishi.

Yoshi bir joyga borgandan keyin juftiga mayli qolarmidi? (Saodat, 2010. №4).

JUFTI HALOL (yoki HALOL) [b] – *ot.* Qonuniy yoki shar'iy nikohdagi er-xotin.

Bunday odamga jufti halol bo'lish uchun har qanday qiz darhol rizolik berar deb o'ylayman, – dedi shayx (K.Yashin, Hamza).

Bu hayot har kimga haloli bilan totli (So'zlashuv nutqidan).

– K –

KAMKO'RK [b] – *sft.* Ko'rinishi yoqimsiz, chiroyli emas; xunuk. *Xotin Oftob oyimning bu gapidan hayron bo'ldi va o'ylab so'radi:*

– Nima balo, kuyoving kamko'rkmi? (A.Qodiriy, O'tkan kunlar)

Erkaksiz uy fayzsiz, kamko'rk ko'rinadi ko'zga (M.Alaviya, Bolalarimning otasi).

Xotin, aksincha, kamko'ringina, nochorgina (Buxoronoma, 2013-y. 23-fevral).

KEKSA [b] – 1. *sft.* Uzoq yashab katta yoshga yetgan, umrining oxirgi bosqichini yashayotgan; qari. *Keksa odam. Keksa xotin. Keksa chinor.*

Quyosh endi tig' yoya boshlagan salqin sabohda Qorabuloq qishlog'idan biri keksa, biri yosh – ikki otliq chiqib kelaverdi (M.Ismoiliy, Farg'ona tong otguncha).

Ana, keksa qayrag'och, uning tunuka tom ustiga engashgan azamat shoxi qurib qolibdi (S.Ahmad, Qadrdon dalalar).

2. *ot* Keksa yoshdagi shaxs; qariya. *Keksalar choyxonasi. Keksalar o'giti.*

Keksalar bo'lsa bunday issiq o'ttiz yil burun bo'lganini, o'shanda ham shahar tovaday qizib, odamlar atrof chorbog'larda jon saqlashganini eslashardi (Mirmuhsin, Umid).

Keksalarning aytishicha, bunday paytlarda biron-bir tepalikning ustiga chiqib, jimgina quloq solib yotsangiz, yerning nafasini eshitarmishsiz (O'.Hoshimov, Qalbingga quloq sol).

Ammo ba'zan asrdan so'ng ikki yosh yigit ham keksalar suhbatiga some' bo'lishadi (Ahmad Lutfi Qozonchi, Qaynona).

KICHIK TIBBIY XODIM [a] – *ot.* Vazifa, lavozim darajasi past, quyi.

Men o'n bir yil shu idorada kichik bir lavozimda ishladim (Guldasta).

Men shu kasalxonada kichik tibbiy xodim bo'lib ishlayman (So'zlashuv nutqidan).

«**KOMANDIR**» [e] – *sft.* Erkaklarning tashqi ko'rinishini, ya'ni qorin qo'yib olganligini ifodalab keladi.

«Komandir», siz nima desangiz shu-da! (So'zlashuv nutqidan)

KOSIB [b] – ot. Oyoq kiyimi (etik, mahsi va sh.k.) tikish bilan shug'ullanuvchi hunarmand; yamoqchi.

Bu odamlarning biri Farmon kal laqabli etikdo'z kosib bo'lib, yoshi o'tishi bilan u tuzalib ketgan (Mirmuhsin, Me'mor).

Otamiz mahallamiz kosibi edilar (So'zlashuv nutqidani).

Bitta man emas, buvi, mahalladagi hamma kosiblarning ahvoli shunaqa (G'G'ulom, Mening o'g'rigina bolam).

KUYOVGA CHIQMOQ (KUYOVGA CHIQARMOQ) [a] – fl. Er qilmoq; juftlashmoq. Erga bermoq.

Kuyovga chiqayotgan qizning orzulari bir olam edi (Oila davrasida, 2013-y. 14-mart).

KO'KRAK [a] – ot. Ayollar ko'ksidagi bir juft sut bezi, ko'ks, emizish a'zosi; emchak.

Gulnorning bo'yi o'sib, ko'kragi to'lishib, butun gavdasi qizlik latofati bilan yashnagan chog'da boyvachcha uni ko'z tagiga olib qo'ygan edi (Oybek, Tanlangan asarlar).

Binafsha, sen uchun ko'kragim – erk yeri, Bu yerdan ko'klarga uchgil! (Cho'lpon)

KO'RIMSIZ [b] – sft. Ko'rinishi yo savlati, ko'rki yo'q; xunuk. Ko'zga tashlanmaydigan.

Tashdan qaraganda eski, ko'rimsiz katta, sermol do'konda Salimboyvachcha turar edi (Oybek, Qutlug' qon).

Sun'iy sariq soch go'zal qizlarni oddiy va ko'rimsiz qizlarga aylantiradi (Buxoronoma, 2013-y. 23-fevral).

KO'ZIDAN AYRILMOQ [b] – fl. Ko'r (so'qir) bo'lmoq, ko'rishdan mahrum bo'lmoq. Ko'rish qobiliyatini yo'qotmoq.

Ikki ko'zidan ayrilsa-da, hech insofga kelmadi (Oila davrasida, 2013-y. 14-mart).

KO'ZI OJIZ [b] – sft. Jismonan zaif, ko'r, so'qir odam.

Mobil telefonlarga maxsus programmalarni o'rnatish orqali ko'zi ojiz kishilar obyektini aniqlay olishi mumkin (Pars Today).

KO'ZI YORIMOQ [a] – fl. Bo'shanmoq, tug'moq.

O'g'il muborak bo'lsin, bolam! Hozirgina ko'zi yoridi (O'Hoshimov, Qalbingga quloq sol).

Bunda ko'zi yorigan ona vujudidan oksitosin garmoni chiqib ketadi va xotirjamlik hamda baxtiyorlik hislari paydo bo'larkan (Oila davrasida, 2013-y. 14-mart).

– L –

LAYLI-YU MAJNUN [b] – *sft.* Yigit-qizning bir-biriga oshiqligi, maf-tunligi, sevgisi, muhabbati.

Layli-yu Majnun bo'laylik, yorim (Qo'shiqdan).

«**LOYI» BO'SH ERKAK [e]** – *sft.* Xotini tomonidan boshqariladigan, uning izmidan chiqmaydigan; o'zining mustaqil fikriga, yo'lga ega bo'l-magan ma'nau zaif erkak.

Loyi bo'sh erkak ekanini o'zi isbotlab qo'ydi. Na ota-ona, na birodar-lar uchun qayg'urdi (Oila davrasida, 2013-y. 14-mart).

– M –

MARDIKOR [b] – *ot.* Vaqtincha yoki kundalik yollanib ishlovchi ishchi.

Dalada ishning tig'iz vaqti o'tgani uchun mardikorlarga bundan bir necha kun ilgari javob berilgan (Oybek, Tanlangan asarlar).

Mardikor bozorga ayolning chiqishi – XXI asr fojiasi (So'zlashuv nutqidan).

MARJABOZLIK [e] – *ot.* Xotinbozlik, begona xotin-qizlar bilan aysh-ishrat qilish; noqonuniy bir necha ayollar bilan buzuqlik qilmoq. Zino.

Bilaman, marjabozlik qilmoqchi bu. O'rgildim sizday marjabozdan! Holing menga ma'lum-ku (E.A'zam, Jannat o'zi qaydadir).

MA'NAVIYATI BO'SH [b] – *sft.* Beodob ishlarga moyil kishi. Buzuq-chilikdan hazar qilmaydigan erkak yoki ayol. To'rt tomoni qibla kishi.

Afsuski, jamiyatda ma'naviyati bo'sh ayollar ham bor (Gazetadan).

MA'SHUQA [a] – *ot.* Sevimli; mahbuba; xushtor, jazman.

Parvo qilma, o'lib ketdi ajdaho, Kelib ma'shuqini topgandir Shakar (Shirin bilan Shakar).

Mohinur lutfdan yiroq, nazokatdan bebahra tuyabonlar va hayosiz ma'shuqalar ko'ngillarini shu tarzda bir bayt aytish ila xushlayverdi (T. Malik, Nomus).

MIJOZI ZAIF [e] – *cft.* Hezalak, erkakligi yo'q; jinsiy aloqaga layoqatsiz.

Ana shunday «yalang'och san'at»ning ijodkorlari ham, ishqibozlari ham asosan mijozi zaif kimsalar ekanligi ayni haqiqat (Pars Today).

☞ **MUHTOJ TABAQA [b]** – *ot.* Moddiy qiyinchilikdagi hayot; bechorachilikda yashovchilar. O‘zini yoki oilasini boqa olmaydigan, bechorahol. *Muhtojlik tortmoq. Muhtojlikda yashamoq.*

☞ *Anvar Murod Pokiston hukumati, davlat ishlari ustida to‘xtalib, falokatlarimiz ko‘p, ayniqsa, xalqimiz qashshoqlik, muhtojlik changalida dedi (Oybek, Nur qidirib).*

Odatda, himoyaga, yordamga yoki alohida g‘amxo‘rlikka muhtoj tabaqa vakillari hayotini tashvishlardan xoli etish, ular osmonini qora bulutlardan tozalash har doim ham muqaddas burch bo‘lib kelgan (Buxoroma, 2018-y. 22-yanvar).

– N –

☞ **NAFSGA ERK BERISH [b]** – *ot.* Haddan tashqari badnafslilik.

Ogohlik, ziyraklik har doim va har qachon bizning eng sodiq qo‘riqchilarimiz ekanini, mehnatsiz keladigan boylik insonga vafo qilmasligini, nafsga erk berish birinchi g‘animimiz ekanini yodingizga solib qo‘ymoqchiman, xolos (Ma‘rifat, 2012-y. 22-avgust).

☞ **NAFSI AMMORA [b]** – *sft.* Kofirlar va munofiqarning nafsi. Ammo ra bosqichi nafsning zulmatdagi bosqichidirki, u bosqich faqat tuban axloq manbaidir.

Nafsi ammora insonni har doim yomonlikka undab turadi. Agar vaqtda uning davosi qilinmasa, inson qalbini xarob qilishi mumkin (Gazetadan).

☞ **NAFSINI QONDIRMOQ [e]** – *fl.* Shahvoniy hirsni qondirish, biror qiz (ayol)ni zo‘rlash.

Bunday o‘z nafslarini qondirmoqchi bo‘lgan zotlar bironing halol xotiniga ko‘z tikib, hayotda hech bo‘lmagan yolg‘on so‘zlarni qilib, shiringina bir turmushni buzmoqchi bo‘ladilar (Hamza, Tuhmatchilar jazosi).

Boyvachchanning ko‘zida har bir xotin uning nafsi, hirs uchun yaratilgan chiroyli meva edi (Oybek, Tanlangan asarlar).

Kuyov nafsini qondirgach, bir piyola sharob ichdifyu mast uyquga ketdi (T.Malik, Nomus).

☞ **NAFS QULI [b]** – *ot.* Nafsidan boshqani o‘ylamaydigan, ochko‘zlik, badnafslilik illatiga duchor bo‘lgan kimsalar.

– *Nafs quli... Birov ishdan kelsa, siz oshdan kelasiz, – dedi Meli polvon jahli chiqib* (P.Tursun, O'qituvchi).

Ming afsuski, ayrimlar nafs quliga aylanib, topgan-tutganlariga qanoat qilolmaydilar (Karvon qo'ng'irog'i, 2013-y. 7-fevral).

NASIBASI QO'SHILMOQ [b] – *fl.* Biror narsaga (masalan, tansiq taomga; to'y-ma'arakaga) rejalashtirilmagan holatda sherik bo'lmoq. Uylanmoq, turmush qurmoq.

Anvarning sizga o'xshagan qizga nasibasi qo'shilsa, aqli tezroq kirar edi (A.Qodiriy, Mehrobdan chayor.).

To'yga Rossiyada yashovchi do'stlarimizning ham nasibasi qo'shilgan ekan-da (So'zlashuv nutqidan).

NIKOHNI BUZMOQ [b] – *fl.* Ajrashmoq. Oilaviy munosabatlarda er-xotinning kelishmovchiligi, bir-birini tushunmasligi sababli ajrashib ketishi.

Tan olish kerakki, hozirgi kunda nikoh buzilishlari ko'p kuzatilmoqda (Oila davrasida, 2013-y. 14-mart).

NOGIRON [b] – *sft.* Ta'sir qilmaydigan, ta'sir o'tkazish qobiliyati yo'q. Ishga yaroqsiz bo'lib qolgan, ojiz (odam yoki uning a'zolari haqida). Nogiron bola. Uning bir qo'li nogiron.

Po'latjon nogiron oyog'iga qarab xo'rsinib qo'ydi (S.Ahmad, Qadrdon dalalar).

O'shanda u poliomiyelet kasalligiga qarshi emlash jarayonida shifokorning qo'pol xatosi tufayli nogiron bo'lib qolgandi (Gazetadan).

NOMIGA ER [e] – *sft.* Erkak va ayol nikohini bekor qildirmagan bo'lsalar-da, bir uyda birga yashamasligi. Erkakning ayoliga nisbatan majburiyatlarini bajarmasligi. O'z xotinidan ruhan, jismonan uzoqlashgan erkak.

U nomiga er edi, aslida. Buni faqat ularning o'zi bilardi, xolos (Gazetadan).

NOMUSIGA TEGMOQ [e] – *fl.* Zo'r'lamoq, qizligini olmoq.

Nomusga tegish deganda ayol jinsidagi shaxs bilan uning erkiga qarshi yoki erkidan tashqari zo'rlik ishlatib, qo'rqitib yoxud jabrlanuvchining o'jizligidan foydalanib, tabiiy usulda jinsiy aloqa qilish tushunilishi lozim (O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining qarori).

NOMUSINI BARBOD ETMOQ [e] – *fl.* Zo'rlik ishlatib, qo'rqitib yoki jabrlanuvchi (masalan, ayol kishi)ning o'jizligidan foydalanib jinsiy aloqa qilish.

Uyda yolg'iz qolganim kezda bir nobakor badbaxt bostirib kirib, nomusimni barbod etgan (T.Malik, Nomus).

NOMUSINI BULG'AMOQ [e] – fl. Qizligini olmoq, zo'rlamoq, nomusini to'kmoq, iffatini o'g'irlamoq.

Jondan kechsam kechaman, ammo nomusimni bulg'ashga zinhor yo'l qo'ymanman, – dedi Mo'mina g'azabli ovozdada (T.Malik, Nomus).

NOMUSINI YERGA URMOQ (NOMUSINI YERGA BUKMOQ) [b] – fl. Sharmanda qilmoq, hammaning oldida obro'yini to'kmoq.

«*Axir, – dedi kampir, – men endi qanday qilaman?! Yetti nomusimni yerga bukding, juvormag!*» (G'.G'ulom, Yodgor)

Shunga qaramay, u o'zini nomusi bukilgan, haqoratlangan deb bildi (S.Anorboyev, Oqsoy).

NOPOK [b] – sft. Hech narsadan hazar qilmaydigan, harom-xarish ishlardan ham qaytmaydigan; qalb. Harom. Toza emas. Nopok odam.

Tashmachi ham nafsiga kuchi yetmagan, vijdoni nopok nusxalar jumlasiga kiradi (Gazetadan).

Shunda Ma'sumani kuchli titroq bosdi. Nopok qo'lni siltab tashladi-da, yugurib ketdi (T.Malik, Nomus).

NOPOKLIK QILMOQ [e] – fl. Buzuqlik qilib, zo'rlamoq; izzat-nafsiga tegmoq, qizligini olmoq.

– *Ey benomus, nopoklik qilishdan or qilmaysizmi? – deb baqirdi Mo'mina* (T.Malik, Nomus).

– O –

OLA XURJUN BO'YNIGA TUSHMOQ [e] – fl. Xotin olmoq. Ro'zg'orli bo'lmoq. Ro'zg'or tashvishlarini zimmasiga olmoq.

Har bir yigitning bo'yniga ola xurjunning tushmog'i bor (A.Jumaqul, Yurakka sig'magan gaplar).

OLIB KETADIGAN DARD [b] – ot. Davosiz, oxiri o'limga olib keladigan kasallik turi. Masalan, rak; OITS kasaliga yetaklovchi VICH virusi kasalliklari.

Bechora, olib ketadigan dardga yo'liqibdi, Olloh shifosini bersin! (Gazetadan)

OLIY JAZO [b] – ot. O'lim; jazoning eng og'ir turi.

Mamlakatimizda 2005-yilda oliy jazo bekor qilingan edi (Postda, 2014-y. 14-aprel).

OQSOQOL [e] – ot. Qari, yoshi o'tgan; ba'zan boshqalarga bosh bo'l'la oladigan kishi.

Oqsoqolning duolarini albatta olish kerak, bolam. Qarilarning duosida gap ko'p (Gazetadan).

ORTIQCHA VAZN [b] – sft. Juda semiz, beso'naqay kishi.

Ortiqcha vazn odatda, kasallikka sabab bo'ladi (Saodat, 2009, №6).

OSON DAROMAD TOPUVCHI [a] – ot. Fohishalik ishi bilan shug'ullanuvchi kishi.

Oson daromad topish ilinjida baribir yashirincha yo'llar bilan bu ishni davom ettiraverishadi (Postda, 2004-y. 14-aprel).

OTA [e] – ot. Qari, yoshi bir joyga yetgan kishi.

Ota, darding yo'qmi? Nega xursandsan? Ustingda yuk, xirgoyi qilib ketyapsan? – deb so'rashibdi (Ahmad Lutfi Qozonchi, Qaynona).

OTASI [e] – ot. Er, oila boshlig'i. Xotinning eri.

Dunyoning hamma tashvishi sizda, otasi, – dedi Ma'suma beka Me'morga tasalli bermoqchi bo'lib, – bu ish ham xudoning irodasi (Mir-muhsin, Me'mor).

OTAXON [e] – ot. Qari, yoshi ulug' odam.

Davraning to'ridagi otaxonlar bazmga fayz kiritib turibdi (Oila va jamiyat, 1997-y. 23-aprel).

OYBOSHI [a] – ot. Xotin-qizlarning hayz ko'rishi.

Oyboshi – balog'atga yetgan qiz bolada va bola tug'ish yoshidagi ayollarda har 26 – 29 kunda, ba'zan 21 – 24 kunda (qisqa sikl) sodir bo'ladigan biologik jarayon (Saodat, 2009. №2).

OYOG'IDAN AYRILMOQ [b] – fl. Biron falokat natijasida cho'loq bo'lib qolmoq. Nogiron bo'lmoq.

Hayot sinovlari uni sindirolmadi. Hatto ikki oyog'idan ayrilsada, umidini so'ndirmadi (Buxoronoma, 2013-y. 23-fevral).

OZODLIKDAN MAHRUM BO'LMOQ [b] – fl. Qonunga xilof nojo'ya ishi, jinoyati tufayli qamalmoq, jazosini o'tamoq.

Ozodlikdan mahrum qilish jinoyat huquqida eng og'ir jazo sanaladi (Huquq va burch).

OG'IROYOQ [a] – sft. Homilador, bo'g'oz xotin.

Tog'ay og'iroyoq xotinlarga xos sustkashlik bilan o'choq boshida kuy-malanib yurgan Marhamatga e'tibor bermadi (Yoshlik).

OG'ZI BUZUQ (yoki **OG'ZI YOMON**) [b] – *sft.* So'kinadigan, og'zidan haqorat so'zlar chiqadigan odobsiz shaxs.

Kashanda va og'zi buzuq otaga qarshilik ko'rsatish mumkinmi? (Gazetadan)

OG'ZINI SHIRIN QILMOQ [e] – *fl.* Biror narsaga o'rgatib qo'yimoq. O'pmoq, muchchilamoq. Pora bermoq.

– *Qani, og'zingizni shirin qiling, shahzodam! – Og'zini shirin qilish... – dedi Bashirjon... – og'izni og'iz bilan shirin qiladilar, malikam! (Ne'mat Amin, Yelvizak)*

Boshliqning og'zini shirin qilib ishini bitiradiganlar toifasidan emasmi? (So'zlashuv nutqidan)

– P –

PANJA ORASIDAN QARAMOQ [b] – *fl.* Ishga, masalaga rasmiyatchilik, sovuqqonlik bilan qaramoq, beparvo yondashmoq.

Nega uning qilmishlariga panja orasidan qaraysiz? (Sh.Rashidov, Bo'rondan kuchli)

Biroq bu holat shahar «Suvoqova» korxonasi, shuningdek, fuqarolar murojaatlariga panja orasidan qarayotgan boshqa ba'zi idoralar mutasaddilariga saboq bo'lishi kerak (Buxoronoma, 2013-y. 23-fevral).

PANJARA ORTIGA RAVONA BO'LMOQ [b] – *fl.* Qonunga xilof ishi, jinoyati uchun qamalmoq.

Aks holda, ulardan ba'zilari hatto panjara ortiga ravona bo'lishlari ham muqarrar edi (Buxoronoma, 2013-y. 23-fevral).

– Q –

QABRISTON XODIMI [e] – *ot.* Qabristonda go'r qazuvchi kishi; go'r-kov.

Qoratoy cholni uyda qoldirib, O'roz bilan birga mozorga, qabriston xodimiga jo'nadi (Oybek, Tanlangan asarlar).

QAND SO'RMOQ [e] – *fl.* O'pmoq, bo'sa olmoq.

Chunzki bu til lablaringdan To'ti yanglig' so'rdi qand (E.Vohidov).

QIZ [[a] – 1. *ot.* Balog'at yoshiga yetmagan ayol. *Qiz bola. Yosh qiz. O'quvch i qiz.*

2. *ot.* Balog'atga yetgan, ammo hali erga tegmagan ayol; ma'suma, bokira.

– *Qizmi, juvonmi, Gulnormi – baribir, man dadamning yosh xotin olishini xohlamayman, – dedi Salim* (Oybek, Qutlug' qon).

O'zirnigidan qiz olma demishlari haqqast chin bo'ldi (T.Murod, Otamdān qolgan dalalar).

QIZLIGIDAN JUDO QILMOQ [e] – *fl.* Zo'rqlamoq. Qiz bolaning nomusiga tegmoq; tajovuz qilmoq.

Aldagani, qizligidan judo qilgani yetmaganday, endi umriga ham nuqta qo'ymoqchi. Shu insofdanmi? (Gazetadan)

QONUNNI CHETLAB O'TMOQ [b] – *fl.* Bo'ysunmaslik, itoat etmaslik. *Nachora, otaning hukmi vojib, uning irodasiga bo'ysunmay ilojing yo'q* (S.Siyoyev, Otliq ayol).

Ba'zida qonunni chetlab o'tadigan kimsalar ham topiladi (Postda, 2004-y. 14-aprel).

QOQILGAN AYOL [a] – *sft.* Yanglishgan, xato qilgan; shu tarzda pand yegan, nochor holatga tushgan xotin.

Bu uning ikkinchi marta qoqilishi. Oldingi safar tanbehlargasizozq biroz esini yig'gan edi (Sh.G'ulomov, Bo'z yer uyg'ondi).

Hozircha u qoqilmay, obro'siga putur yetmay kelyapti (F.Musajonov, Himmat).

QOTMADAN KELGAN [b] – *sft.* Terisi suyagiga yopishgan; ozg'in, oriq. Ramaqijon.

Saltonbu g'am-u g'ussadan, muhtojlik va doimiy ochlikdan so'lishib ketgan qotma yuzini cho'zg'ilovchi kulgidan o'zini tutolmay kular edi (M.Ismoilij, Farg'ona tong otguncha).

... beqasam to'ning oldi ochilib... qotma tanasi ko'rinib turar edi (N.Aminov, Qahqaha).

Ular juda qotma ham, to'lacha ham bo'lmasliklari, keyin yurishlari ham binoyidek bo'lishi lozim (Oila davrasida, 2014-y. 14-mart).

QURBON BO'LGAN [b] – *fl.* Biror sabab tufayli uning yo'lida hayotdan ko'z yummoq, o'lmoq.

Xalq jinoyatchi bo'lishi mumkin emas, qurbon bo'lishi mumkin (Gazetadan).

QO'SHMACHI [a] – ot. Begona ayol bilan begona kishi (erkak)ning uchrashuviga, qo'shiluviga vositachilik qilib kun ko'radigan odam; dalla.

Men hali kelib-kelib odamgarchilikni, diyonatni, nomusni tuproq bilan teng qilgan sizday razil, xotinfurush qo'shmachilar oldida shunday past tushdimmi?! (Hamza, Boy ila xizmatchi)

Ko'p qatori, halol mehnat bilan kun kechirish o'rniga bu «xonim» qo'shmachilikni «kasb» qilib olganiga nima deysiz?! (Buxoronoma, 2013-y. 23-fevral)

QO'SHMOQ [b] – fl. Biror erkak va xotin-qizni birlashtirish, er-xotin qilmoq.

Qo'shnilar shu Vahobjonni qo'shib qo'ysak, o'zidan tinchib ketarmidi deyishadi (S.Ahmad, Tog' afsonasi).

Bu ikkala yoshni qo'shib qo'yimoq biz, ota-onalar, zimmasida (So'zlashuv nutqidan).

– R –

RAFIQA [a] – ot. Umr yo'ldoshi, xotin, yor.

Farzandim, otam, rafiqam – mendin so'ng yonar chirog'im – ana shu do'stlarim (S.Siyoyev, Yorug'lik).

Ishdan horib qaytding, dilgir, hoynahoy, Rafiqang uzatdi bir piyola choy, Unut bo'ldi shunda zoring, charchog'ing, Ko'ngildan bir nafas ketdi g'uboring (A.Oripov, Yillar armoni).

Yuzidan muloyimlik, eriga itoat, to'g'rilik ma'nolari tomib turgan bu xotin qutidorning rafiqasi – Oftob oyim (A.Qodiriy, O'tkan kunlar).

«RAIS» [e] – ot. Qorin qo'yib olgan, beo'xshov ko'rinishli erkakka kinoyali tarzda qo'llaniladi.

O-o-o, rais buva bo'libsiz-ku! (So'zlashuv nutqidan)

RANGLI TELEVIZOR [a] – ot. Ayollarning hayz ko'rish davri.

Rangli televizorda sikl buzilibdi (So'zlashuv nutqidan).

– S –

SARIQ [b] – ot. Jigardagi jiddiy salbiy o'zgarishlar tufayli teri, ko'z oqining sarg'ayishidan iborat og'ir va yuqumli kasallik nomi; gepatit.

U sariq kasalligiga chalinibdi (So'zlashuv nutqidan).

SAVDOYI BO'LIB QOLMOQ [b] – fl. Dilgir, dilgirlikka moyil; ma'yus, g'amgin. 1. Aqlidan ozgan, telba.

– *Jinni bo'libsan! Savdoyi bo'lib qolibsan!* – dedi Salimxon Obidiy unga [xotiniga] (Mirmuhsin, Umid).

Hali oq-qorani tanimagan yigitcha bu qiyinchiliklar, vijdon iztiroblari oldida savdoyidek kalovlanib, taqdirning ayovsiz o'yinlaridan garang bo'lib qolardi (S.Ahmad, Ufq).

2. Biror kimsa, narsa dardida es-hushidan ayrilgan.

Uning [Salomatning] ko'yida savdoyi bo'lib qolgan edim (N.Qobil, Unutilgan sohillar).

Xotinlar: «Bechora chol! Suyukli qizidan ayrilib, savdoyi bo'lib qoldi!» – deb pichirlashar edi (O.Yoqubov, Izlayman).

[Bo'ronboy:] *Ishq dardi bedavo dard: ro'yrost gapirsam, ishq yo'lida savdoyi bo'lganman* (K.Yashin, Hamza).

SOCHIGA OQ ORALAGAN [b] – sft. Qarigan, yoshi o'tgan kishi.

Sochiga oq oralagan bir ayol dorixonaga kirib, dori sotuvchiga: «Qaragan sochlarga biror narsa bormi?» – dedi. Sotuvchi: «Ha, xonim, menda oq soch tolalariga chuqur ehtimor bor», – deb javob berdi! (Internetdan)

SOCHI OQARGAN [b] – sft. Qari, yoshi o'tgan kishi.

Yigirma besh yil keyingi hayotimni xayolan tasavvur qilaman. Sochlarim oqargan, o'g'lim uylangan (Ahmad Lutfi Qozonchi, Qaynona).

To'rdagi stol qarshisida sochlari oqargan doktor o'tirardi... Bu ayol qishloqda «Huri do'xtir» deb tanilib ketgan (O'Hoshimov, Bahor qayt-maydi).

SOCHI TO'KILGAN BOSH [b] – sft. Kal, sochi qolmagan bosh. Yaltirbosh.

Pensilvaniya universiteti olimlari sochi to'kilgan insonlarning boshini o'rganganlaridan keyin shunday xulosaga kelganlar: yaltirbosh odamlardagi sochlarning ildizi soni sochi ko'p odamlardagi ildizlardan kam emas (Internet ma'lumotidan).

SO'NGGI MANZIL [b] – ot. O'tkinchi umrning oxirida boriladigan joy; qabr, go'r, go'riston, qabriston.

O'lim to'shagida so'nggi manzilga tayyorgarlik ko'rayotganida ishimizdagi muvaffaqiyatni ko'zimizda yosh bilan nishonlayotgan bu – bizlarmiz (Buxoronoma, 2013-y. 23-fevral).

- T -

TALOQ QO'YMOQ [e] – *fl.* Er tomonidan xotinning haydalishi; shar'iy ajrashish; erning xotini bahridan o'tishi, javobini berishi.

Ertasi er o'ziga kelganida xotinini taloq qo'yib yuborgani yodiga tushdi (Saodat, 1997. №1).

TAYYOR NARSA (TAYYORGINA QUSH) [a] – *ot.* O'ynash, erkaklar bilan noqonuniy yashab, yana boshqasiga ilakishib ketadigan ayol; fohisha.

Bu safar ham «tayyor narsa»ni tashlab ketgisi kelmadi. Uni uyiga – Chorsuga kuzatib bordi (O'Hoshimov, Nur borki, soya bor).

TINIQ SUVNI LOYQALATMOQ [b] – *fl.* Buzg'unchilik qilmoq.

Hamma zamonlarda tiniq suvni loyqalatuvchilar bo'lgan (O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 1989-y. 30-iyun).

TINCHI YO'QOLMOQ [b] – *fl.* Sevmoq, yaxshi ko'rmoq. Ishqi tushmoq. Moyil bo'lib qolmoq.

Sarvar qizni ko'rgandan buyon tinchini yo'qotgan (Buxoronoma, 2013-y. 23-fevral).

TOHIR-U ZUHRO [b] – *ot.* Sevishmoq, yigit-qizning bir-biriga ko'ngil qo'yishi; atrofdagilarni unutar darajada birovga maftun bo'lish.

Assalomu aleykum, Tohir-u Zuhrolar, bormisizlar? (Hamza, Maysaraning ishi)

TUNGI KAPALAK [a] – *ot.* Fohisha, tanasini sotib kun ko'radigan buzuq ayol.

Tungi kapalaklarni jazolash kerak (Internet ma'lumotidan).

TURMUSHGA UZATMOQ [a] – *fl.* Qiz bolani balog'atga yetkazib erga bermoq.

Katta o'g'li Farruxni uylantirdi, qizi Ma'murani ham turmushga uzatdi (Buxoronoma, 2013-y. 27-fevral).

TURMUSHGA CHIQMOQ [a] – *fl.* Erkak bilan nikoh orqali qovushmoq; erga tegmoq. Erli bo'lmoq.

Qizlarning erki o'zida, sevib, sinashib turmushga chiqishadi (Guldashta).

To'rtinchi sinfga o'tganimda onam o'zi bilan maktabda ishlaydigan o'qituvchiga turmushga chiqdi (O'Hoshimov, Qalbingga quloq sol).

TURMUSHI BO'LMASLIK [b] – *fl.* Ajrashmoq. Er-xotinlik holati va shu holatdagi hayotning barham topishi.

Agar shunday tashlab qo'yila bersa, o'rtaga sovuqchilik tushadi, oqibatda turmushlari bo'lmaydi (R.Fayziy, Cho'lga bahor keldi).

TURMUSH QURMOQ [b] – fl. Erga tegmoq; uylanmoq; xotin olmoq, qovushmoq.

Yigirma yil turmush qurib, bola ko'rmadim (I.Rahim, Chin muhabbat).

Biroq nayrangboz Abduvohid Hurixon Sattorova bilan ham silliqqina turmush qilib keta qolmadi (Mushtum).

Ona sho'rlik yigirma ikki yoshida beva qolib, shu-shu turmush qurmadi (O'.Usmonov, Sirli sohil).

Turmush qurganiga uch yil bo'libdi-yu, hamon bu uyga ko'nikib ketolmaydi (Saodat, 2015. №4).

TURMUSH O'RTOG'I [b] – ot. Er-xotinlik holatidagi shaxsning har biri (er va xotin bir-biriga nisbatan).

Rustam uyiga shirakayf keldi. Birozdan so'ng turmush o'rtog'i Shohista ham ishdan qaytdi (Gazetadan).

Ayrim rollar yoqib qolsa, menga bering desam, bu rol sizga tushmaydi deb turmush o'rtog'im ochiqchasiga aytardilar, qaysarlik qilsam, koyib berardilar (Saodat, 2009. №6).

TUZALMAS DARD [b] – ot. Davosiz, oxiri o'linga olib keladigan kasallik turi. Masalan, rak, OITS kasaliga yetaklovchi VICH virusi kasalliklari.

Yer yuzida tuzalmas dardlar ko'payib ketyapti (So'zlashuv nutqidan).

TO'LADAN KELGAN [b] – sft. Jussasi yoki biror a'zosi bo'liq etli, semiz. *To'la odam.*

O'rta bo'yli, to'ladan kelgan, lekin keng yuzining go'shtlari sarg'ayib, salqib tushgan, ellik sakkiz yoshlarda bo'lgan kasalnamo xotin asta-sekin yurib kelaverdi (Oybek, Tanlangan asarlar).

To'rdagi kichkina eshik ochilib, ichkaridan to'la yuzli... beliga qilich osgan qirq besh yoshlar chamasida bir kishi ko'rindi (A.Qodiriy, O'tkan kunlar).

To'la, qip-qizil mag'izdek ayol bir haftada cho'pdek bo'lib qolgan edi (O'.Umarbekov, Yoz yomg'iri).

To'lacha ayol ayqash-uyqash so'z oqimi orasidan sovuq yerdan to'ppa-to'g'ri va mag'rur ko'tarilayotgan gullarga boqar va uning qiyofasida hayrat zohir edi (Jahon adabiyoti, 2015. №5).

TO'LIQ SHAKL [b] – sft. Et qo'ygan; semiz, to'lishgan.

Zaynab Kumushning to'lib yetmagan gavdasiga va g'ubor tegmagan husniga hayron bo'lib, mulohazasini aytishdan qo'rqdi (A.Qodiriy, O'tkan kunlar).

Saltanatxon kurortdan qaytib keldilarmi? Oyday to'lib, kunday kulib kelgandirlar, bo'lmasam? (S.Abduqahhor, Sanamay sakkiz dema)

TO'Y KUNIDAN QO'RQMOQ [b] – *ot.* Jinsiy o'jiz yoki erkakligidan hadigi bor odam. Yoki nomusidan ayrilgan, ammo uni oshkor etmagan qiz.

Men esa to'y kunidan juda qo'rqaman. Naqadar uyat, axir, menga tushgan qizning bir umr qiz bola bo'lib o'tishiga qanday chidayman? (A.Jumaqul, Yurakka sig'magan gaplar)

– U –

UMR YO'LDOSHI [b] – *ot.* Oilada xotin yoki erga nisbatan qo'llanadi. Turmush o'rtog'i.

Yo Rabbim, Senga bandalik qiladigan, meni Sening yo'lingdan qo'ymaydigan umr yo'ldoshga ro'baro' qil (Ahmad Lutfi Qozonchi, Qaynona).

UNAQA DARD [b] – *ot.* Davosiz, oxiri o'limga olib keladigan kasallik turi. Masalan, rak, OITS kasaliga yetaklovchi VICH virusi kasalliklari.

Aylanay, unaqa dardlardan Allohning o'zi asrasin (So'zlashuv nutqidan).

UNAQA «KASB» [a] – *ot.* Nopok yo'l bilan tanasini sotib kun kechiradigan buzuq ayolning ishi, hunari.

Ular hali yosh, unaqa «kasb»imni tushunishmaydi, opa (Gazetadan).

UYATLI JOY [a] – *ot.* Ayollar jinsiy a'zosi. Avrat.

Uyatli joyida kasallik bor, bolam (Gazetadan).

UYLANMOQ [e] – *fl.* Biror qiz yoki ayolni o'z nikohiga olmoq, rasmiy nikoh yo'li bilan qovushmoq; oila qurmoq (er kishi haqida).

Tolibjonboyning ikki o'g'li uylangan, bir qizi erga tekkan, nabiralari ham bor (Oybek, Tanlangan asarlar).

Qo'shnilar shu Vahobjon uylana qolsaydi, o'zidan tinchib ketarmidi deyishadi (S.Ahmad, Tog' afsonasi).

Yigit birdan uylanish taraddudiga tushdi-yu, bir haftaning ichida to'y ham bo'la qoldi (A.Qahhor, Xotinlar).

Bir oycha avval otasi uni Toshkentning Qashqar mahallasidagi baddavlat xonadonlardan birining qiziga uylantirgan (H.G'ulom, Mash'al).

Haydar ota bosh bo'lib [Asrorqulni] bir beva xotinga uylantirib qo'ydi (A.Qahhor, Asror bobo).

UYLI-JOYLI QILMOQ [e] – fl. Uylantirmoq, xotin olib bermoq.

Axir uylik qilish ota-onaning bo'ynida, bolam (Saodat, 2010. №5).

UZATMOQ [a] – fl. Turmushga chiqarmoq, erga bermoq.

Qiz bola ota-onaga omonat, uzatib tinchiy! (S.Zunnunova, Yangi direktor)

Kelin qilsang – yo'qdan qil, qiz uzatsang – borga qil (Qanotli so'zlar).

Siz uzatishni xohlamasangiz ham, balki, u erga tegishni xohlab qolgandir (O'.Hoshimov, Qalbingga quloq sol).

– V –

VAQTINCHALIK YOSTIQDOSH [b] – ot. Noqonuniy xotin yoki er, o'ynash, jazman, xushtor.

Kimga vaqtinchalik yostiqdosh vafo qilibdi?! (Gazetadan)

VASLIGA YETMOQ (VASLIGA YETISHMOQ) [e] – fl. Qarshi jins vakilasi bilan jinsiy aloqa qilmoq, jinsiy munosabatda bo'lmoq. Jinsiy maylini qondirmoq.

Podsho shu kecha qizning vasliga yetibdi (Ertakdan).

VA'DASIGA VAFO QILMOQ [e] – fl. Yigitning va'da bergan qiziga uylanmog'i, xotinlikka olmoq, uylanmoq.

Sobirjon qizga bergan va'dasiga vafo qildi (Saodat, 1993. №1).

– X –

XIZMATCHI [b] – ot. 1. Ko'cha-ko'y, hovli va bog'larga suv sepib, supurib-sidirib yuruvchi xizmatkor; qorovul.

O'nlab xizmatchilar hafsala bilan yer supurgan, meshkobchilar etaklarini belbog'ga qistirib, suv sepgan (S.Siyoyev, Avaz).

Eshikda qari xizmatchi Hoji Solih paydo bo'ldi. U darvishnamo, kamtarin, xayolchan kishi edi (Oybek, Navoiy).

2. Idora yoki muassasalarda xonalarni supurib-sidiruvchi xodim.

Ikki yildan keyin bozorning xizmatchisi unga odam qo'ydi (Sh.Xolmirzayev, Og'ir tosh ko'chsa).

XOTININING IZMIDA (XOTINNING YO'RIG'IDA) [e] – *sft.* Xotin quli, xotini ta'siri tufayli yaqinlaridan uzoqlashgan, ularning hol-ahvolidan xabar olmaydigan oqibatsiz erkak.

U hamon xotininin izmida yuradi (So'zlashuv nutqidan).

XO'JAYIN [a] – *ot.* Er, oila boshlig'i, umr yo'ldoshi.

Xo'jayinim vafot etganlaridan so'ng farzandlar tarbiyasi, ro'zg'or tashvishi zimmamga tushdi (Oila va jamiyat, 1998-y. 19-yanvar).

– Y –

YALANGOYOQ [b] – *sft.* Qashshoq, o'ta kambag'al, yalang'och odam. *Egnida bir yengi tirsakdan, bir bari tamoman yo'q ilma-teshik bo'z yaktak, yalangoyoq cholni ko'rib G'ulomjonning yuragi ezilib ketdi* (M.Ismoiliy, Farg'ona tong otguncha).

YALTIRBOSH [b] – *sft.* kal 1. Boshning sochi to'kilgan. Kal. Kalbosh. *Xayr, mayli, – dedi boshqa bir ishchi, – ularning yaltirboshlarini miltiq dorisi bilan davolaymiz* (S.Ayniy, Qullar).

2. Sochi butunlay yoki qisman to'kilib ketgan kishi.

Qalinroq o'rtog'im A'zam kal hamma yaltirbosh singari gapga chechan, qochiriq gaplarni gapirib mullavachchalarni va hattoki peshqadamlarni kuldirar edi (M.Muhammadjonov, Turmush urinishlari).

Mutaxassislar fikricha, yaltirboshlik sababi boshda soch yo'qligida emas, balki to'kilgan soch o'rniga o'sib chiqqan yangi sochlarning sifatida (So'zlashuv nutqidan).

YAQINLIK QILA OLMASLIK [e] – *fl.* Zaiflik natijasida jinsiy aloqa qila olmaslik.

U «Er menga yaqinlik qila olmadi» degan da'vo ila undan ajramoqchi (Shayx Muhammad Solih, Baxtli oila).

YANGLISHMOQ [b] – *fl.* 1. Haqiqatga yoki biror qonun-qoidaga xilof ish tutmoq; xato qilmoq, adashmoq.

– *Jiyanim so'zlaridan yanglishib ketsalar, nima bo'ladir?*

– *Nega yanglishinlar, ular bilganlaridan ortiqni, albatta, so'zlamaslar* (A.Qodiriy, O'tkan kunlar).

2. Ish-faoliyatda, hayotda noto'g'ri yo'l tutmoq.

Men, bola-chaqali odam, yanglishib, yo'ldan ozib sizga uylangan ekanman, nikohimdan chiqdingiz, meni kutmang (Oybek, Tanlangan asarlar).

Yakka qolgan Saodat qadrining poymol etilganidan, yanglishganidan to'yib-to'yib yig'ladi (Yoshlik).

YENGIL BO'LMOQ [a] – fl. Homiladorlik muddati nihoyasiga yetmoq, tug'moq. Bo'shanmoq. Qornini, bachadonini bo'shatmoq.

Endigina yengil bo'lgan onalar o'zlarini uzoq muddat ehtiyot qilishlari kerak (Saodat, 2009. №6).

YENGILTABIAT [a] – sft. Odobsiz, axloqsiz, suyug'oyoq xotin.

U Hoji xola singari yengiltabiat qiz-juvonlarni axtarar edi (M.Ismoil, Farg'ona tong otguncha).

O'z umrini xazon qilgan bir yengiltabiat ayolni xotinidan afzal ko'rgan bu yigit kim o'zi? (Gazetadan)

Bo'ronbek uning hovliqmaligini, yengiltabiatligini bilar edi (H.G'ulom, Mash'al).

Siz bu yengiltabiatligingiz bilan mening shirin ro'zg'orimni achchiq qildingiz (Guldasta).

Kasb tanlashga yengiltabiatlik bilan qaragan kishi hayotda chittakka o'xshab beqo'nim bo'ladi (R.Usmonov, Odobnoma).

«*Rohatoy!* – dedi u shiddat bilan. – *Men sizni bunchalik yengiltabiat deb o'ylamagan edim*» (R.Fayziy, Tosh oyna).

YETUK GAVDA [b] – sft. Semiz, og'ir vazndagi kishi.

YIGITLIGINI BERMOQ [e] – fl. Umrida birinchi marta jinsiy aloqa qilmoq.

Rahmat polvon o'zining ilk yigitligini Xumorxonimga bergan va ba'zi qulay paytlarda duch kelsa ham, xotiniga xiyonat qilmagan edi (E.Turon, Bu tog'lar ulug' tog'lar).

Uning yetuk gavdasi harakatlariga xalal berardi (Buxoronoma, 2018-y. 26-sentyabr).

YOLLANMA ISHCHI [b] – ot. Ma'lum shartlar asosida ishlaydigan, yollangan xizmatchi. O'z istagi bilan xizmatkor.

Shirkat vakili yollanma ishchilarni ikkiga ajratdi (S.Siyoyev, Yorug'lik).

YOLG'IZ AYOL [a] – sft. Ersiz, eri o'lgan yoki eridan ajrashgan xotin.

Yolg'izlik qursin, opajon, – Qumri dasturxonni yig'ishtirayotib so'zladi (H.G'ulom, Mash'al).

Ayniqsa, yolg'iz ayol jamiyatga moslasha oladimi? (Hurriyat, 2018-y. 26-sentyabr)

YOSTIQDOSH [b] – *sft.* Bir yostiqaqa bosh qo‘ygan, birga turmush qurgan er yoki xotin. Nikoh orqali qovushgan erkak va ayol (bir-biriga nisbatan).

Mamaniyoz yostiqdoshi o‘lib ketib, Bir o‘g‘ilcha qolgan ekan bo‘yi yetib (G.G‘ulom, Ko‘kan).

Jahon priyomnikning qulog‘ini burab turganda yostiqdoshi Baxsham hovliqib kirib keldi (S.Nurov, Durdona).

Bobur esa ko‘z ochib ko‘rgan yostiqdoshi Oysha begimning bevafoigidan qattiq ozor chekkani uchun ayol zotidan tortinar, ancha-muncha qizlarga moyillik bildirmas edi (P.Qodirov, Yulduzli tunlar).

YOTIB QOLGAN TOVAR [a] – *ot.* Qari qiz. O‘z vaqtida, ya‘ni yetilgan paytida turmushga chiqmagan qiz.

E, ularning qizi yotib qolgan tovar, Xudoyam deyishsin (So‘zlashuv nutqidan).

YOVUZLIKKA GUGURT CHAQMOQ [b] – *fl.* Buzg‘unchilik holatiga olib keladigan xatti-harakat bilan shug‘ullanmoq, yovuzlikka sabab bo‘lmoq.

Poraxo‘r, tovlamachi, savodsiz «ulug‘»larimizning farovon hayoti-yu mehnatkash, bilimdon, halol kishilarning g‘aribona turmushi ana shu yovuzlikka gugurt chaqmadimikan? (O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati, 1989-y. 30-iyun).

YOSHI BIR JOYGA BORGAN [b] – *sft.* Uzoq umr ko‘rgan, juda qari (odam haqida). Kundalik yumushlarga yaramaydigan kishi.

Odatda, umr bo‘yi vaqtini qadrlamagan, yoshi bir joyga yetib «ko‘zi ochilgan» ijodkorlar ellikdan o‘tib sermahsul bo‘lib qolishadi (Buxorona, 2013-y. 27-fevral).

YOSHI KATTA [b] – *sft.* Yosh emas. O‘rtacha yoshdagi yoki qari kishi.

Ustam berib yubordi. Novvoyxonaga bir yoshi katta odam keldi, usta bilan suhbatlashdi, keyin shu daftarni qo‘limga tutqazib, sizga berib yuborishdi (Ahmad Lutfi Qozonchi, Qaynona).

YOSHI ULUG‘ [b] – *sft.* Qari, ko‘pni ko‘rgan, hayotiy tajribasi yetarli shaxs.

Yoshim ulug‘. Ulug‘larga hurmat qani? (Ahmad Lutfi Qozonchi, Qaynona)

YOSHI ULG‘AYGAN [b] – *sft.* Ancha yoshga borgan, ko‘pni ko‘rgan shaxs.

Odam yoshi ulg'aygan sari hayotiy tajribasi ham ortib boradi, ro'zg'or ishlariga ham uquvli bo'ladi (Saodat, 2010. №4).

YOSHI O'TGAN QIZ [a] – ot. Qari qiz, yetuklik yoshi o'tgan, ammo turmush qurmagan qiz bola.

Yoshi o'tgan qizga xaridor bo'lsak, uydagilari «jon» deb beradi! – deb javob berdi (Saodat, 2010. №4).

Yoshi o'tgan qizlarning «pixi qayrilgan» bo'ladi. Balki, shu boismi, qizim falonchining qiziga o'xshab o'tirib qolmasin deb ota-onalar ham qizlarini erta uzatish taraddudiga tushib qolishadi (Saodat, 2010. №4).

YUKLI [a] – sft. Homilador, homilasi bor. Bo'g'oz. Yukli xotin.

Pulimiz yo'qligi yetmay, sargardon sarg'ayganimiz yetmay, buning ustiga, yukli bo'lib qolganim ikkimizni qayg'udan qayg'uga otardi, – dedi Hoji xola (M.Ismoiliy, Farg'ona tong otguncha).

YUKCHI [e] – ot. Yuk tashish, ortish, tushirish bilan shug'ullanuvchi ishchi. Xizmatkor.

Stepan dushman qo'lga o'tib ketgan kichik bir paroxodga yukchi bo'lib kirdi (A.Muxtor, Qoraqalpoq qissasi).

Xo'jabekov kuni bilan yelkasidan besh pudlik qop tushmagan yukchi-day eshikka suyandi (S.Anorboyev, Oqsoy).

YO'LDOSH [a] – ot. Xotin, umr yo'ldoshi.

O'ziga bir yo'ldoshni istar, Bir qadrdon sirdoshni istar (H.Olimjon).

– Z –

ZAIFA [a] – ot. Xotin, rafiqa, jufti halol yoki shunchaki ayol kishi.

Og'amning zaifasi farzand dog'idan telba bo'lib qoldi, – dedi Qutbidin (P.Qodirov, Yulduzli tunlar).

Fosiq afandi yoshgina ovozni eshitib, kiftlarini uchirdi... keyin tomog'i-ni qirib, mayin tovush bilan:

– *Zaifalari bo'lasizmi, xonim afandi?* – deb so'radi (M.Ismoiliy, Farg'ona tong otguncha).

– *Ayol kishi oti – jo'ni bilan zaifa deyiladi,* – dedi polvon tishini tishiga bosib (Q.Kenja, Notanish gul).

Robiani sotib olgan kishi yetim zaifaga ish buyurdi (T.Malik, Nomus).

– O‘ –

O‘QQA UCHMOQ [b] – *fl.* O‘lmoq. Hayoti tugamoq, yashashdan to‘xtamoq, shahid bo‘lmoq.

Voy, uzoqlarda o‘qqa uchgan bolam (Mirmuhsin, Me‘mor).

«O‘RTOQ BOSHLIQ» [e] – *undal.* qorin qo‘yib olgan erkaklarga kinoyali tarzda ishlatiladi.

Mana, o‘rtoq boshliqning o‘zlari keldilar (So‘zlashuv nutqidan).

O‘G‘IL (QIZ) KO‘RMOQ [a] – *fl.* Tug‘moq, bo‘yida, qornida bo‘lgan bolani oy-kuni yetgach dunyoga keltirmoq.

Xotini o‘n yil mobaynida ikki qiz, bir o‘g‘il ko‘rdi. G‘anijonning xotini tug‘may yurib-yurib, birdaniga qo‘chqorday o‘g‘il ko‘rdi (A.Qahhor, Asarlar).

– G‘ –

G‘UNCHA [a] – *ot.* Qiz bola, iffatli, qo‘l tegmagan.

U misoli g‘uncha, ko‘nglidan o‘tkazdi yigit (Yosh kuch, 1999. №6).

G‘UNCHASINI OCHMOQ [a] – *fl.* Qizligini olmoq, nomusiga tegmoq.

Umarxon qizning g‘unchalarini ochib, har tomonga yo‘ygan edi (Te-murnoma).

– Sh –

SHAHVONIY [b] – *sft.* Hirsli, ehtirosli; shahvatparast; shahvat va shahvatparastlikka oid, shahvat bilan bog‘langan erkak yoki ayol.

Birovning ayoliga shahvoniy qarash yaramaslikdir, bolam (Saodat, 2009. №2).

SHAHVONIY HIRS [b] – *ot.* Kishilarning hayvoniy istaklari. Shahvat va shahvatparastlikka oid, shahvat bilan bog‘langan. *Shahvoniy ishq. Shahvoniy hirs ga berilmoq.*

Rahmatilla Obidiy hech kimning xayoliga kelmagan, juda-juda xunuk bir shahvoniy hirs ortidan jinoyat qilib qo‘yib, besh yilga kesilib ketdi (A.Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari).

Unda erkaklarni o‘ziga tortadigan shahvoniy hirs, sirli bir joziba mu-jassam edi (N.Qobil, Unutilgan sohillar).

Shahvoniy hirs va behayolikni, yengil-yelpi hayotni targ'ib qiluvchi ohang va tasvirlar taqiqlanadi (Saodat, 2009. №2).

SHARMANDALI ISH [b] – ot. Fohishalik. Tanini sotishdek axloqsiz, buzuq ish bilan shug'ullanish. O'g'rilik. Birovning mulkiga ko'z olaytirish.

Sharmandali ish bilan shug'ullanishingni bilardim-u, tuhmatchilingingni bilmasdim (S.Ahmad, Hukm).

«Sharmandali ish»ga qo'l urayotgan qizlar, afsuski, oramizda uchrab turadi (So'zlashuv nutqidan).

– Ch –

CHIMILDIQ KO'RMASLIK [a] – fl. Er qilmaslik. Ma'lum sabablarga ko'ra qizning turmushga chiqmasligi. Ba'zan yoshi o'tgan qizning to'y-siz (masalan, yoshi katta, avval uylangan; ajrashgan yoki xotini o'lgan erkakka) turmushga chiqishi natijasida chimildiqqa kiritilmasligi.

Bechora, yoshligi o'tib ketdi, chimildiq ko'rolmadi (Gazetadan).

CHORAKTA [b] – ot. Aroq, vino; umuman, mast qiladigan ichimlik.

– *Chorakta topiladimi? – dedi Orif aka* (Asqad Muxtor, Chinor).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1 - 5-жилдлар. - Тошкент: ЎзМЭ, 2002 - 2007.
2. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. - Тошкент: Ўқитувчи, 1978. - 408 б.
3. Омонтурдиев А. Бир сўз луғати. - Термиз: Бойсун, 1996. - 46 б.
4. Омонтурдиев А. Ўзбек тилининг қисқача эвфемик луғати. - Тошкент: Фан, 2006. - 232 б.
5. Holder R. W. How Not To Say What You Mean. A Dictionary of Euphemisms. - Oxford, 2002. - 502 p.
6. Словарь гендерных терминов / Под. ред. А.А.Денисовой. - М.: Информация 21 век, 2002. - 78 с.

Илмий-оммабон нашр

ГУЛЯМОВА ШАҲНОЗА

**ЎЗБЕК ТИЛИ ГЕНДЕР ХОСЛАНГАН
ЭВФЕМИЗМЛАРИНИНГ
ҚИСҚАЧА ИЗОҲЛИ ЛУФАТИ**

Муҳаррир: Абдулла ШАРОПОВ

Бадий муҳаррир: Баҳриддин БОЗОРОВ

Техник муҳаррир: Дилшод НАЗАРОВ

Саҳифаловчи: Алимардон АҚИЛОВ

Мусаҳҳиҳ: Маҳфуза ИМАМОВА

Нашриёт лицензияси: АИ №134, 27.04.2009

Теришга берилди: 10.08.2019 й.

Босишга рухсат этилди: 29.08.2019 й.

Офсет қоғози. Қоғоз бичими: 60x84 $\frac{1}{16}$.

Schoolbook гарнитураси. Офсет босма.

Ҳисоб-нашриёт т.: 2,96. Шартли б.т.: 4,65.

Адади: 500 нусха.

Буюртма № 127

«АКАДЕМНАШР» нашриётида тайёрланди.
100156, Тошкент шаҳри Чилонзор тумани 20^А-мавзе 42-уй.

Тел.: (+99871) 217-16-77

e-mail: info@akademnashr.uz

web: www.akademnashr.uz

«Javoxir Nashr» МЧЖ босмахонасида чоп этилди.
Тошкент шаҳри Мирзо Улуғбек тумани Зиёлилар кўчаси 6-уй.

ISBN 978-9943-5927-2-8



9 789943 592728